tarixchi-olimlarimiz tomonidan batafsil tadqiqi etib kelinmoqda. Bular tarixiy-ilmiy, badiiy –ilmiy asarlarda o'z ifodasini topgan. Ammo Rossiya imperiyasining Turkistonni dastlab josuslik yo'li bilan obdon o'rganib chiqishi, so'ngra o'ta jirkanch yo'lar bilan uni zabt etishi, nihoyat, mustamlakachilik sirtmog'ining o'lkamiz bo'yniga solishi kabi tarix haqiqatni O'rta Osiyo xalqlaridan doimoy tarzda sir tutib kelingan. Chunki sobiq Sho'ra zamonida bu haqiqatlar soxtalashtirilib, "O'rta Osiyoning bosib olinishi" iborasi o'rniga, "Qo'shib olinishi" qabilida talqin etilgan. Tarixchi olimlar tarix haqiqatiga zid ish qilib, "Qo'shib olingan" iborasini qo'llab, uni ko'r-ko'rana soxtalashtirganlari ham tarixdan ma'lum. Buning natijasida g'oyani rivojlantirishga katta e'tibor berildi. O'sha davrda keng hajmli, ammo zamini bo'sh "ilmiy" asarlar, maqolalar, turli xildagi monografiyalar uzluksiz chiqib turgan. Faqatgina 80-yillarning oxiriga kelibgina, milliy ong, mustaqilik kurtak yoza boshlagandan keyingina to'xtatildi. Nihoyat, tarixchilar bu soxta, g'ayriqonuniy qarashlarni rad etib, Vatan yilnomasining fojiali kechmishtlarini yotituvchi ilmiy asosga ega bo'lgan asrlar va kitoblar chiqara boshladi. Vatanimiz mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'nggina tarix haqiqatlarini ro'yabga chiqarish, tarixiy voqealar va hodisalarni ro'yi-rost, ochiq-oshkoralik, ilmiylik tamoyillariga amal qilgan holda, yozila boshladi.

Chor istibdodining o'lkani bosib olishida amalga oshirgan xunrezliklari, katta qirg'inlari, moddiy va madaniy boyliklarni tashib ketishi, boshqalarini esa yo'q qilib tashlaganliklari barchaga ma'lum. Shu yo'lda ular har qanday yo'llardan foydalanishdan tap tormadilar. Istilo qilingan hududlar imperiya tarkibiga mustamlaka hudud sifatida kiritildi, bu yerlarda imperiyaning siyosiy, iqtisodiy, geopolitik manfaatlari birinchi o'ringa chiqdi. O'lka tayyor xom ashyo bazasiga uning aholisi esa tayyor ishchi kuchi sifatida qaraldi. Chor istibdodiga qarshi Turkiston xalqi ko'p yillar mobaynida miliy ozodlik uchun kurashlar olib bordi. Ayniqsa XIX asrning ikkinchi yarmida ro'y bergan milliy ozodlik harakatlari podsho hukumatining Turkistonni istilochilik yo'li bilan bosib olinganligini yana bir karra isbotlab berdi. XIX asrning ikkinchi yarmida sodir etilgan miliy-ozodlik harakatlari Vatanimiz tarixida "Miliy mustaqilik va ozodlik harakati" sifatida muhim ro'l o'ynadi. Bu davr milliy-ozodlik kurashiga Po'latxon, Qurbonjon dodxoh, Yetimxon, Darvishxon, Muhammad Ali eshon (yoxud Dukchi eshon)lar rahbarlik qilishdi. Garchi bu kurashlar muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlangan bo'lsa ham, podsho hukumatini jiddiy xavotirga solib qo'ygan va doimo sergak turishga undagan. Ushbu davrda sodir bo'lgan milliy-ozodlik harkatlarida Turkiston



1-TOM, 11-SON

aholisining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va miliy-ozodlik uchun kurashlari o'zaro birlashgan holda sodir bo'lganini ko'ramiz.

Ana shunday milliy-ozodlik harakatlarining yirik rahbarlaridan biri nafaqat Turkiston tarixida, balki, Chor imperiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan yana bir yirik xalq harakati bo'lgan Qurbonjon dodxoh boshligida sodir etilgan qo'zg'olonda ham ko'rishimiz mumkin. 1876-yil martda Farg'ona vodiysida Po'latxon² (asl ismi - Mullo Is'hoq Mullo Hasan o'g'li) boshchiligidagi xalq qo'zg'alonging so'nggi bosqichi bo'lib o'tadi. Ushbu qo'zg'alonni Aleksandr II shafqatsizlik bilan bostirish to'g'risida fon Kaufmanga farmon beradi. O'rta Osiyoni bosib olishda shafqatsizlik va rahsizlik bilan hudularni egallagan generallarning barchasi Farg'onaga yuboriladi. Bular orasida M.D.Skobelyev ham bor edi. Hal qiluvchi jang qishning so'nggi kunlarida bo'lib o'tadi. Rus askarlari bilan bo'lgan jangda kuchlarning notengligi sabab qo'zg'alon mag'lubiyatga uchraydi va 1876-yil 1-mart kuni Marg'ilon shahrida qo'zg'alon rahbarlari dorga osiladi natijasida, vodiydagi ozodlik kurashini bir qirg'iz ayoli bo'lgan Qurbonjon dodxoh davom ettirdi. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi:

Qurbonjon dodxoh kim o'zi? Nima uchun uni dodxoh deb atashgan, bunga u nomni kim qachon in'om etgan? Nega ushbu ayoldan rus hukumati doimo hayiqqan? Dastlab ushbu savollarga batafsil to'xtalib o'tsak, **Qurbonjon dodxoh Mamat qizi**, ayrim adabiyotlarda esa Qurmonjon Mamat qizi sifatida nomi keltiriladi. Qurbonjon Mamat qizi 1811 — yili O'sh³ yaqinidagi Modi qishlog'i tavallud topganro O'g'il tug'ilishini kutgan otasi qiziga Qurbonjon deb ism qo'yadi. Qismatni qarangki, Qurbonjon uncha-muncha erkaklarga nasib etmagan bahodirlik fazilatlarini bilan dovrug' taratadi. Yoshligidan mohir chavandoz bo'lib, uloqlarda erkaklar bilan tengma-teng olishadi, 18 yoshida turmushga berishganda, eridan ko'ngli to'lmay ajrashadi. Ajrashish haqida birinchi bo'lib xotin kishi og'iz solishining o'ziyoq o'sha davr uchun bamisoli bir isyon edi. Qurbonjonning go'zalligidan xabar topgan Andijon hokimi Olimbek dodxoh Hasanboy o'g'li (1800—1861- 1863⁴ y.y.) Qashqardan qaytayotganda unga sovchi qo'yadi va 1832 yili unga uylanadi. Qurbonjon Mamat qizini xon saroyiga olib kelib, Nodirabegimga tanishtiradi (1833 y.). Nodirabegim va Uvaysiy kabi o'zbek shoirlari ta'sirida Qurbonjonning

² XIX asr 70- yillarida Qo'qon xonligi bo'ylab ko'plab xalq harakatlari bo'lib o'tadi. Shunday xalq harakatlaridan biri Po'latxon qo'zg'aloni bo'lib 1873 yilda boshlangan. 1875-yil bahorida avj olgan. 1876-yil qo'zg'alon bostiriladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki ushbu qo'zg'alonda Qurbonjon dodxoh va uning farzandlari ham qatnashgan.

³ O'sh – Qirg'iziston Respublikasining 7 viloyatidan biri.

⁴ Olimbek dodxoh Hasanboy o'g'li vafot etgan sanasini turli manbalarda turlicha keltiriladi.



1-TOM, 11-SON

dunyoqarashi shakllanadi. Qurbonjon oilaparvar rafiq, ona bo'libgina qolmay turli urush-janjal, yuqori doiradagi fitnayu-ig'volardan erining eng yaqin va uddaburon maslahatchisiga ham aylanadi. Mallaxon davrida Olimbek vazirlik martabasiga yetishishida Qurbonjonning xizmatlari ham bo'lgan deb ayta olamiz. Olimbek dodxoh Qo'qon xonligida bosh harbiy vazir hisoblanib, hattoki, Qo'qon xoni Mallaxonni taxtdan tushirib, o'rniga Shomurodni taxtga o'tkazishda ishtirok etgan. Shu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlab o'tish zaruruki Qurbonjon dodxoh nafaqat qo'zg'alon rahbari balki, iste'dodoli shoira ham bo'lgan. Bunda uning turmush o'rtog' Olimbek dodxoh Hasan o'g'lining Qo'qon shahriga Qurbonjonni olib kelganligi sabab bo'lgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Tarixchi olim Haydarbek Bobobekov o'zining "Zinnat-Qurbonjon dodxohning adabiy taxallusi" maqolasida bu haqda quyidagicha bayon etadi: "Dodxohning adabiy faoliyatiga kelsak, u oliy martabadagi shaxslar davrasida bo'lib, aytish mumkinki, Nodirabegim bilan, shuningdek Uvaysiy, Anbar Otin, Dilshod, Mohzoda Begim, Mushtariy, Zebuniso, qolaversa Maxmur, Muqimiy, Furqat bilan muloqotda bo'lgani tabiiy edi. Uning mavqei, faoliyati, maqsad-maslaklaridan kelib chiqsak badiiy ijodida ozodlik, erk, mardlik tuyg'ulari kuylangani ehtimolga yaqin. Darvoqe', yuqorida tilga olingan Zinnatning forsiyda yozgan she'ri

Turgan-bitgani malohatdan iborat bo'lgan adab ummoni,

Gar soya solsa (o'sha joy) chaman (nastarin) bo'lgay

mazmunidagi misradan boshlanadi. Ikkinchi misrada shoira G'oyat xushbo'y qora zulfingni magar zohid ko'rsa juhud bo'ladi, mug' (hindu) bo'ladi, tarso bo'ladi, nasoriy bo'ladi, hatto braxman bo'ladi deb adab ummonining zulfi ta'rifida favqulodda mubolag'alar topadi, uchinchi — Men shunday baxti qaromanki, biror kishiga humo bo'lib soya solsam havo (bo'ron) bo'ladi, shamol bo'ladi, girdob bo'ladi, oxir palaxmonga aylanadi deb oldingi misradagi mubolag'ani endi tabiiy kuchlar misolida yana kuchaytiradi. Navbatdagi misrada esa shoir bamisoli qilqalamda zarif bir manzara chizadi: Otning, qo'lning va yoy (kamalak)ning suvrati solingan vodiya chaman bor, lola bor, gulsayri bor, rayhon va safsarlar jilvasi bor... "—deya ma'lumot keltirib o'tadi⁵. Bundan ko'rinib turibdiki unda, she'riyatdan ham ancha-muncha iste'dod va layoqat ham bo'lgan. Bunga Umarxon va Nodirabegimlar tomonidan Qo'qon shahrida asos solingan "Qo'qon adabiy muhiti" o'z ta'siri ko'rsatgan bo'lishi

⁵ "Zinnat-Qurbonjon dodxohning adabiy taxallusi" Haydarbek Bobobekov. "Yosh kuch" jurnali, 1989 yil, 3-son.



1-TOM, 11-SON

ehtimoldan xoli emas. Afsuski, uning ushbu she'ridan boshqa she'r va g'azallari haqida ma'lumotlar yo'q.

Qurbonjon va Olimbek dodxohning 5 o'g'il va 2 qizi bo'lgan. Olimbek dodxoh hokimiyat uchun kurashlarda saroy fitnasi natijasida 1861-yilda o'ldirilgach, aniqrog'i, 1861-yilda go'zal kanizakning sharobga solgan zahari tufayli hayotdan ko'z yumadi. Qurbonjon 50 yoshida tul qoladi. Qurbonjon dodxoh erining o'limidan so'ng 1861-yilda ma'lum muddat Andijon hokimi bo'ladi. U Oloy xalqlari orasida ancha obro' qozongani, istasa qo'zg'olon ko'tarib yuborishga qodirligidan cho'chib unga Olimbek o'z ajali bilan o'ldi degan xabar yetkazishadi. Qurbonjon to'rt o'g'li bilan ona yurtiga qaytadi. Chamasi erining vafot etmagani, balki halok etilganini keyin eshitadi. Xudoyorxonni qayta taxtga ko'tarish harakatlariga faol ishtirok etishining bosh sababi ham shunda. So'ngra farzandlarini olib, o'z ovuliga Modi qishlog'iga jo'nab ketadi. Keyinchalik, aniqrog'i 1862 – yilda, Xudoyorxonni taxtga ko'tarish maqsadida qo'shin tortib kelgan Buxoro amiri Muzaffarni O'shda Qurbonjon qarshi oladi. Ayol kishining jasurligidan, aql-zakovatidan, ulus orasida orttirgan obro'sidan lol qolgan Amir Qurbonjonga dodxoh unvonini beradi va shu yerning o'zida rasmiylashtiradi. O'sha o'sha Qurbonjonning nufuzi ortgandan-ortadi, u Oloy va Gulchin qirg'izlarining rasmiy vakiliga aylanadi. Uning vakolatini tasdiqlash ma'nosida Xudoyorxon ham dodxoh unvonini beradi, yorliq taqdim etadi. Shunday qilib, Qurbonjon ikki marta generallik unvoniga sazovor bo'lgan. Amir yordamida Qo'qon taxtini qayta egallagan Xudoyorxon esa Qurbonjon dodxohni Olay vohasining hokimi qilib 1865-yili tayinlaydi. Keyinroq Rossiya Imperiyasining Qo'qon xonligiga qarshi hujum harakatlari, Xudoyorxonning taslim bo'lishi, buning natijasida Qo'qon xonligining soliq tizimiga qarshi qaratilgan Po'latxon qo'zg'aloni endilikda rus mustamlakachilari va ularga taslim bo'lgan Xudoyorxonga qarshi qaratiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek Po'latxon boshchiligidagi xalq qo'zg'aloning bostirilishi istiqbolchilik harakatining bayrog'ini Qurbonjon dodxoh o'z qo'llariga olishiga sabab bo'ladi. Shu paytda Qurbonjon Oloy-O'sh hokimi bo'lib turgan vaqtda O'sh noibi bo'lmish o'gay o'g'li Jorqinboy Chernyayev otryadi tomonidan o'ldiriladi. O'sh hokimligini dodxohning to'ng'ichi Abdullabek o'z qo'liga oladi va butun Oloy vohasi, keyinroq Farg'ona vodiysida Qurbonjon dodxoh boshchiligida xalq miliy-ozodlik harakatlari boshlanib ketadi. Shu o'rinda yana bir faktni keltirib o'tish kerak: Qurbonjon dodxohning diplomatiya borasida ham anchagina uquvi bo'lgan. Buning isboti sifatida Qashqardagi Yettishahar uyg'ur davlati hukmdori Yoqubbek o'rtasida o'rnatilgan yaxshi munosabatlarni misol qilib olishimiz mumkin. Bu



1-TOM, 11-SON

jasoratli ayol o'z o'g'illari — Abdullabek, Mahmudbek, Hasanbek, Botirbek va Qamchibek bilan birqatorda o'zbek, qozoq, qirg'iz, uyg'ur va boshqa xalqlarni birlashtirib birgalikda mustamlakachilarga qarshi kurash olib boradi. Uning rahbarligida olib borilgan tengsiz kurash Turkiston xalqlari ozodlik harakati sahifalarida oltin harflar bilan bitilgan. Uning To'marisga xos jasorat, Amir Temurdek o'lmdan qo'rqmaslik, haqiqatga tik qarashi, Vatan g'ururi, uning ozodligini har narsadan ustun qo'yish e'tiqodi tufayli tez orada unig dovrug'i butun Oloy vohasiga, keyinroq Farg'ona vodiysi bo'ylab tarqalib, shuhrat qozonib ketadi. Qurbonjon dodxohnin ovozasini hattoki, Rus imperatorining qulog'iga ham yetib boradi, podsho hukumati ushbu g'alayoni bostirish uchun ko'plab harbiy kuchlarni safarbar etadi. Bu kurashga Farg'ona vodiysini istilo etishda nom chiqargan "Qonxo'r general" deya tarixga kirgan general M.D. Skobelyev (1843-1882 y.y.) boshchilik qiladi. Hattoki uning hatti-harakatlari Qurbonjon dodxohni bo'ysindirishga ojizlik qildi. Lekin, kuch-qudrat, harbiy va zamonaviy qurol-aslahalarning borligi, askarlarning tartibli va reja asosida harkatlari kabi bir qancha omillar ruslarning ustunligini ta'minlagan. Bularni tushungan Qurbonjon dodxoh dastlab Qashqarga Yettishahar hukumdori Yoqubbek oldiga jo'naydi, keyinchalik Qashqar orqali Afg'onistonga bir muddat o'tib ketadi. General M.D. Skobolev shunda ham xotirjam bo'lolmadi, u mayor Ivanovni sulh uchun dodxoh huzuriga yo'lladi. Qurbonjon dodxoh mayor Ivanovni hurmatini joyiga qo'yib qarshi oldi, uning maqsadini tinglaydi va undan harbiy unvonini so'raydi.

— Men — mayorman, — deydi Ivanov.

— Men esa generalman, — deydi bosiqlik bilan Qurbonjon dodxoh. Bu, tengtengi bilan suhbatlashish kerak, degan ma'noni anglatar edi. M.D. Skobolev dodxoh bilan bevosita o'zi muzokara olib borishga majbur bo'ladi. Bu haqda K. Abaza shunday hikoya qiladi: "Ruslar jasur dushmanlarinin hurmat qilishadi. Qurbonjon dodxoh qattol generalning so'zlarini diqqat bilan tinglagancha mulohaza yuritadi. Rus istilochilari sardori xushomadlariga uchmay, uning taklilari mag'zini chaqadi. Ha, hozir bularning qo'li baland. Kuch va qurol-yarog' ustunligi ularda. Murosa qilishga to'g'ri keladi. Bo'lmasa, xalq chumoliday qirilib ketadi.

---- Dodxohga tushuntiringki,-- dedi takabbur Skobelyev,-- u o'z o'g'illarini qasos yo'lidan qaytarsin. Biz ularga unvon, mansab va martaba beramiz. Shaxsan imperati oliylari Qurbonjon Mamat qiziga rus armiyasi general mayori unvoni berilganligini ham ma'lum qiling.



1-TOM, 11-SON

Muzokaralar oxirida hamani lol qoldirib, Qurbonjon dodxohga o'z qo'li bilan zarbof to'n kiygazdi.--- deya yozadi 1876-yilda sodir bo'lgan voqealarni marrix o'zining Turkiston istilosi asarida⁶. Suhbat asnosida Qurbonjon bundan keyin qon to'kishdan naf yo'qligini tushunib yetadi va fon Kaufmanning taklifiga ya'ni, M.D.Skobelyev bilan sulh tuzishga rozi bo'ladi. U xalqni, shuningdek uch o'g'lini qo'zg'olondan qaytaradi. (To'ng'ichi Abdullabek kurash yo'lini tanlaydi.) Rus vaqtlı matbuoti dodxohni "Oloy malikasi" deya e'tirof etib ulug'laydi. Unga Turkiston general-gubernatorlari ham tan beradi va sulh tuzilgandan keyin 1877-yil yanvar oyidagina Farg'ona vodiysida tinchlik o'rnatilgani haqida Sankt-Peterburgga telegramma jo'natishga muvaffaq bo'ladi. Podsho Aleksandr II va Aleksandr III esa uning Oloy malikasi ekanligini qonuniy rasmiylashtiradilar. Garchi uning qo'l ostida bo'lgan Oloy hududi rasman imperiya hududi hisoblansa ham, amalda ichki mustaqillik to'laligicha Qurbonjon dodxoh qo'l ostida bo'lgan. U Oloyni to'vafotiga qadar o'zi mustaqil idora etgan. Shu o'rinda yana bir voqeani berib o'tishni joiz topdik: Qurbonjon dodxoh general-gubernator Duxovskiy bilan uchrashish uchun O'shga ot minib kelganida 87 yoshda edi!.. Suhbat tugagach, Duxovskiyning ad'yutanti — uning imosi bilan — otga minayotgan dodxoh yoniga yugurib borib kampirni otga mindirish uchun yordamlashmoqchi bo'ladi. Qurbonjon bosh chayqab ko'makning zarurati o'qligini bildiradi va «hali kuchdan qolganim yo'q» deb otga minadi va uni yeldirib ketadi. Ushbu voqea 1898-yilda sodir bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki Qurbonjon dodxoh sulh tuzgan taqdida ham o'zligini, qadr-qimmatini, Vatan oldidagi burchini hech ham unutmagan. Ushbu ayoldan oliy lavozimdagi rus amaldorlari doimo hayiqishgan. 1901-yilda Turkistonga kelgan Rossiya imperiyasining harbiy vaziri A.N.Kuropatkin shaxsan o'zi O'shga borib Qurbonjon dodxohni ziyorat qilgan. Rus podshosi NikolayII ning rafiqasi Mariya Feodorovna yuborgan tuhfa – qimmatbaho uzukni unga topshirgan.Bu esa uning dovrug'I va hurmati Rus imperiyasi paytida nechog'lik yuksak darajada bo'lganligidan darak beradi.

Qirgi'z va o'zbek xalqlarining milliy-ozodlik harakatida faol qatnashgan, farzandlarini erksevarlik yolida voyaga yetkazganQurbonjon dodxoh Mamat qizi 1907-yili 97 yoshida yorug' olamni tark etadi. Uning qabri o'zi tug'ilib o'sgan Modi qishlog'iga dafn etilgan. Vafot etgan paytda uning 2 o'g'ili, 2 qizi, 31 nabirasi, 57 chevare va 6 evarasi bo'lgan, deya fikrimizni yakunlaymiz.

XULOSA

⁶ К.Абаз. "Завоевание Туркестана". Санкт-Петербург., 1902г.



1-TOM, 11-SON

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda ro'y bergan milliy-ozodlik harakatlari mahalliy aholining turli ko'rinishlaridagi chiqishlarida o'z aksini topgan. Rossiya imperiyasi bosib olgandan so'ng, Yurtimiz hududida turli ko'rinishdagi qo'zg'alon va milliy ozodlik harakatlarining o'zi 6000 martadan ko'proq sodir etilganligining⁷ o'ziyoq aqlni shoshirib qo'yadi. Ushbu davrda sodir etilgan milliy-ozodlik harakatlarining aksariyati ma'lum bir hududlardagina sodir bo'lib, ma'lum bir hududlarga tegishli bo'lsa-da, uning aks sadosi butun o'lka bo'ylab tarqalgan. Har bir sodir bo'lgan qo'zg'alon boshqa joylarda ham norozilik chiqishlarining ko'tarilishlariga ruhan ta'sir ko'rsatgan. Qo'zg'alonlar bostirilgan taqdirda ham, omon qolgan qo'zg'alon rahbarlari va qo'zg'alonchilar boshqa hududlarga qochib, o'sha hududlarda qo'zg'alon ko'tarib qarshilik harakatlarini davom ettirishgan. Qurbonjon dodxoh Mamat qizi Turkiston xalqlari tarixida xotinqizlardan chiqqan birinchi general ayol sifatida O'rta Osiyo xalqlari tarixida o'z ismini zarhal harflar bilan bitib, xalq qalbidan umrbod joy egalladi. Chunki ushbu insonning ishini uning farzandlari va nabiralari davom ettirishgan. Ular Rus imperiyasi va uning siyosatiga qarshi mardonavor jang olib borganlar. Bu yo'lda hatto o'limga ham tik boqqanlar. Shunday farzandlarni dunyofga keltirgan, ularni Vatan oldidagi burchini ko'rsatib, o'zi ayol boshi bilan ularga namuna, ibrat bo'la olgan, turli millat vakillarini bilashtirib, ittifoq tuzib, umumiy dushmanga qarshi mardonavor kurash olib borgan, ularga to umrining so'nggi nafasigacha bosh egmagan birinchi general ayol Qurbonjon dodxoh Mamat qizi o'ziga tirikligidayoq haykal qo'yib ketdi desak, also mubolag'a bo'lmaydi deb ayta olamiz. Chunki u haqda hozirgi vaqtga qadar Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida ko'plab qo'shiqlar va rivoyatlar to'qilgan. Modi qishlog'ida esa uy-muzeyi mavjud⁸. Farg'ona va O'shda ko'chalar, maktablar uning nomiga qo'yilgan. Bu kabi ishlar uning xotirasiga bo'lgan ehtiromning yuksak ifodasidir.

⁷ J.Raximov. "O'zbekiston tarixini o'rganishda arxiv manbalardan foydalanish" T., "O'qituvchi", 1995. 28-29 bet

⁸ Chorategin T., Omurbekov T., Qirg'iziston tarixi (XIX asr boshi — 1917 yil), Jalolobod, 2000.



**1-TOM, 11-SON
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Абаза К. “Завое вание Туркестана”. Санкт-Петербург., 1902г.
2. Bobobekov H.N. “Po’latxon qo’zg’aloni” T., 1996.
3. Bobobekov H. Raximov J. Sodiqov H. ‘Ozbekiston tarixi. XIX asrning ikkinchi yarmi- XXasrning boshlari”. T., “O’qituvchi’, 1996.
4. Karimov A.I. “Yuksak ma’naviyat—yengilmas kuch”.- T.: “Ma’naviyat”, 2008
5. Мушкетов И.В. Туркестан. —Спб 1886г.
6. Ergashev Q., Hamidov H., “O’zbekiston tarixi”. T., G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
7. Raximov J. ”O’zbekiston tarixini o’rganishda arxiv manbalardan foydalanish” T., “O’qituvchi’, 1995.
8. “Zinnat-Qurbonjon dodxohning adabiy taxallusi” Bobobekov Haydarbek. “Yosh kuch” jurnali, 1989 yil, 3-son.
9. O‘zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob [Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida), T., 2000.
10. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O’. “Vatan tarixi. XVI – XX asrlar boshi” 2-kitob. T., “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh nashriyoti, 2010.
11. Chorategin T., Omurbekov T., Qirg‘iziston tarixi (XIX asr boshi — 1917 yil), Jalolobod, 2000.



1-TOM, 11-SON
“PHONETIC STYLISTIC DEVICES: AN EXPLORATION INTO
SOUND AND MEANING”

Abduraxmanova Zilola Yoqubjon qizi

Teacher of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek

Murodova Fazilat Muxtor qizi

Student of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek

E-mail: murodovafazilat1@gmail.com

***Annotation:** This article provides an in-depth examination of phonetic stylistic devices, which are literary tools that utilize the sound of words to enhance the meaning and emotional impact of language. It discusses the various types of phonetic devices such as alliteration, assonance, consonance, onomatopoeia, rhythm, and meter, and their functions in creating mood, emphasizing themes, and improving memorability. The article also explores the role of these devices across different cultures and literary traditions, their psychological impact, and their evolution in the digital age. Additionally, it addresses their educational importance in teaching language arts and literacy. The conclusion emphasizes the pervasive and enduring influence of phonetic devices in literary expression and communication, reflecting on their importance in human connection and expression.*

***Keywords:** Phonetic Stylistic Devices, Literary Tools, Alliteration, Assonance, Consonance, Onomatopoeia, Rhythm and Meter, Sound and Meaning, Emotional Impact, Cultural, Expression, Psycholinguistics, Digital Narratives, Language Education, Literary, Expression, Human Communication*

Introduction

In the vast and intricate world of literature and language, phonetic stylistic devices play a pivotal role in shaping meaning and enhancing the aesthetic quality of a text. These devices, rooted in the sounds of language, offer writers a powerful tool to create rhythm, mood, and emphasis. This article delves into the world of phonetic stylistic devices, exploring their types, functions, and impact on literature. The study of phonetic stylistic devices is a journey into the auditory heart of language. These devices are the subtle yet potent elements that give language its musicality and rhythm. They are essential for any narrative or poetic composition, acting as the threads that weave the tapestry of sound and meaning. When we consider the importance of these devices,



1-TOM, 11-SON

we recognize that they are not mere embellishments but the very essence of poetic expression and narrative engagement.

Phonetic stylistic devices are rooted in the primal human response to sound. Before the written word, there was the spoken language, where the melody and rhythm of speech could convey as much meaning as the words themselves. This auditory dimension of language can tap into emotions and evoke responses that go beyond the cognitive understanding of text. It's an art that harks back to oral traditions, where the sound patterns of language were crucial for memorization and impact.

Understanding Phonetic Stylistic Devices

Phonetic stylistic devices involve the strategic use of sound for a stylistic effect. Unlike conventional literary devices, which focus on word choice and sentence structure, phonetic devices prioritize the auditory aspect of language. They can include elements like rhythm, rhyme, alliteration, assonance, consonance, and onomatopoeia.

Types of Phonetic Stylistic Devices

- **Alliteration:** This involves the repetition of initial consonant sounds in a series of words. For example, "She sells seashells by the seashore" uses alliteration to create a rhythmic and memorable line.
- **Assonance:** Here, the repetition is of vowel sounds within words, creating internal rhyming. An example is, "Hear the mellow wedding bells" by Edgar Allan Poe.
- **Consonance:** It refers to the repetition of consonant sounds, typically at the end of words, as in "The ship has sailed to the far off shores".
- **Onomatopoeia:** This device uses words that imitate natural sounds, like "buzz," "whisper," and "bang," enhancing the sensory experience of a text.
- **Rhythm and Meter:** The pattern of stressed and unstressed syllables in a line of poetry, creating a musical effect.

Functions and Impact

- **Creating Mood and Atmosphere:** Sounds can evoke emotions and set the tone of a piece. For instance, soft, mellow sounds might create a calm atmosphere, while harsh, abrupt sounds can introduce tension.
- **Enhancing Imagery and Sensory Experience:** Phonetic devices can make descriptions more vivid, enabling readers to 'hear' the sounds being described.
- **Emphasizing Themes and Ideas:** Repetition of sounds can highlight key themes or ideas in a text, drawing the reader's attention.
- **Aiding Memory and Recall:** Rhymes and rhythms are easier to remember, which is why they are often used in advertising and education.



1-TOM, 11-SON

- **Creating Unity and Cohesion:** Repeated sounds can link different parts of a text together, providing a sense of unity.

Examples in Literature

Classic literature offers abundant examples of phonetic stylistic devices. Shakespeare's sonnets, with their meticulous meter and rhyme, are a testament to the power of sound in poetry. Edgar Allan Poe's "The Raven" uses internal rhyme and alliteration to create a haunting, rhythmic quality. Modern examples include the works of Maya Angelou, whose poetry often combines rhythm and repetition to powerful effect.

Phonetic stylistic devices are not merely elements of linguistic flair; they are foundational to the structure and reception of language in both spoken and written forms. To truly grasp their significance, it is essential to understand their diverse applications and implications within the broader context of communication and literary expression.

Multifaceted Applications in Literature and Beyond

While often associated with poetry and prose, phonetic devices are also instrumental in other forms of media and communication. In rhetoric, for example, politicians and orators employ these devices to add punch to their speeches. In marketing, brands leverage alliteration and rhyme to make their slogans sticky and memorable. Even in everyday conversation, elements of phonetic style add color and emphasis, demonstrating the ubiquity of these devices.

The Psychological Impact of Sound Devices

The impact of phonetic stylistic devices extends into the psychological realm. Studies in psycholinguistics suggest that the sounds of words can influence perception and emotional response. For instance, the use of sibilant sounds (like 's') can create a sense of whispering or secrecy, while plosive sounds (like 'b' or 't') can add a sense of abruptness or force.

Phonetic Devices in Global Literary Traditions

Exploring phonetic devices across global literary traditions reveals their universal appeal and function. The lyricism of Arabic poetry, the tonal intricacies of Chinese verse, and the complex rhyme schemes of European sonnets all demonstrate the cross-cultural appreciation of sound in literature. Each tradition employs these devices in ways that reflect and enrich their linguistic and cultural heritage.

The Evolution of Phonetic Devices in Digital Narratives



1-TOM, 11-SON

In the age of digital media, phonetic devices have evolved to fit new forms of storytelling. Podcasts, audiobooks, and even video content rely on the careful consideration of sound for effect. Digital creators are becoming increasingly aware of how the phonetic qualities of their scripts can affect engagement and emotional response.

The Educational Value of Phonetic Devices

Educators recognize the value of teaching phonetic devices as part of literacy and language arts curricula. These devices are not only engaging tools for reading and writing but also serve as gateways to understanding the phonetic aspects of language itself. They can be particularly effective in teaching non-native speakers the subtleties of pronunciation and rhythm in a new language.

Conclusion

Phonetic stylistic devices are more than mere ornaments in language; they are essential tools that enhance the expressiveness and impact of a text. Through the strategic use of sound, writers can evoke emotions, create rhythms, and make their work more memorable. Understanding these devices is key for both readers and writers, as it deepens the appreciation of literature and enriches the craft of writing. As we continue to explore and experiment with language, the creative possibilities of phonetic stylistic devices remain boundless. Phonetic stylistic devices resonate through the corridors of language, echoing in the halls of history and whispering through the pages of modern literature. Their influence is felt from the classroom to the political arena, from the poet's pen to the marketer's catchphrase. The careful craft of using sound in language is a testament to the intricate relationship between form and content, between the speaker's intent and the listener's interpretation. As we continue to explore the depths of these devices, we enrich not only our communication but also our connection to the very essence of human expression. The study of phonetic devices is, in many ways, a study of humanity itself, a reflection of our innate love for the rhythm and melody that underpin the symphony of speech.



**1-TOM, 11-SON
Used of Literature**

1. Abduraxmanova, Z., & Mamurova, M. (2021). THEORETICAL APPROACH TO SPEECH DISFLUENCIES IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 43-45).
2. Абдурахманова, З. (2022). Analysis of pauses and interruptions as elements of linguistic production in simultaneous interpretation. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 533-535.
3. Teshaboyeva, N. Z., Niyatova, M. N. (2021). The importance of words and word formation in language system. *JournalNX is a multidisciplinary peer-reviewed journal*, 7(12), 337-341. 5. Bekova, G. N. And Uralova, N. A. (2022). Innovative teaching methods in foreign language teaching. *Eurasian Journal of Education and Academic Learning*, 8, 31-36. 6. Rahmatullayevna, A. D. (2021). The place and translation of metaphors in poetry. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, 2 (2), 332-335.



1-TOM, 11-SON
" UNLEASHING THE POWER OF LEXICAL, SYNTACTIC, AND
STYLISTIC DEVICES IN LANGUAGE"

Abduraxmanova Zilola Yoqubjon qizi

Teacher of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek

Murodova Fazilat

Student of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek

Annotation: *This article is a comprehensive exploration of the vital role played by lexical, syntactic, and stylistic devices in language. It begins by establishing the importance of these linguistic tools, giving a clear sense of the article's purpose. Each section is well-structured, and the explanations are supported by real-life examples, making the content highly accessible and relatable for readers. The examples used, such as metaphors, similes, anaphora, and hyperbole, effectively illustrate the concepts discussed, enhancing the reader's understanding. Additionally, the reference to Martin Luther King Jr.'s speech adds depth to the discussion of anaphora, showcasing practical applications of syntactic devices. The article concludes by reinforcing the significance of mastering these devices for impactful and persuasive communication. Overall, it provides a valuable resource for writers, speakers, and communicators seeking to elevate their language skills and create more engaging and effective expressions.*

Key words: *Lexical devices, Syntactic devices, Stylistic devices, Metaphor, Simile, Anaphora, Parallelism, Alliteration, Hyperbole, Language tools, Effective communication, Rhetorical devices, Impactful writing, Persuasive language, Martin Luther King Jr., Figurative language, Literary techniques, Language enhancement, Expressive communication, Language mastery*

Introduction

Language is a versatile tool, and within its vast landscape, lie numerous elements that writers, speakers, and communicators can harness to make their message more impactful. Among these elements, lexical, syntactic, and stylistic devices stand out as essential components that can transform mundane language into captivating and persuasive communication. In this article, we will explore the world of lexical, syntactic, and stylistic devices, shedding light on their significance and how they can be used to elevate the art of expression.



1-TOM, 11-SON The Power of Lexical Devices

Lexical devices involve the use of specific words, phrases, and vocabulary to convey meaning, create vivid imagery, or evoke emotions. One of the most fundamental lexical devices is the metaphor, where words are used in a figurative sense to draw a striking comparison. For example, when we say, "Time is money," we're using a metaphor to convey the idea that time, like money, is valuable and should be spent wisely.

Similes, on the other hand, are another lexical device that uses "like" or "as" to make comparisons. For instance, "She was as busy as a bee," paints a vivid picture of someone's bustling activity. Metaphors and similes enrich language by providing depth and color to our expressions, making them more engaging and memorable.

Syntactic Devices for Structure and Emphasis

While lexical devices deal with individual words, syntactic devices govern sentence and paragraph structure. They can be used to emphasize certain points, create rhythm, and influence the flow of the text. Anaphora, for instance, is a syntactic device that involves the repetition of a word or phrase at the beginning of successive clauses. Martin Luther King Jr.'s famous speech, "I Have a Dream," employs anaphora to create a rhythmic and powerful effect, reinforcing the importance of his dream and the urgency for change.

Parallelism is another syntactic device that involves structuring sentences in a parallel manner, creating symmetry and balance. For example, "She likes hiking, swimming, and running," showcases parallelism by presenting a list of activities in a uniform structure. This not only aids comprehension but also adds an aesthetic quality to the writing.

Stylistic Devices for Impact and Persuasion

Stylistic devices encompass a wide range of techniques that can be used to add flair and impact to one's writing or speech. Alliteration, for instance, is a stylistic device that involves the repetition of consonant sounds at the beginning of words within a sentence. Consider the phrase "She sells seashells by the seashore." The repeated "s" sounds create a musical quality to the sentence, making it more memorable and engaging.

Another powerful stylistic device is hyperbole, which involves exaggeration for emphasis. "I'm so hungry I could eat a horse" uses hyperbole to paint a vivid picture of extreme hunger, which is more compelling than a simple statement like "I'm very hungry."



Conclusion

Lexical, syntactic, and stylistic devices are the building blocks of effective and captivating communication. When wielded with skill and precision, these devices have the power to turn ordinary language into extraordinary prose. Writers, speakers, and communicators can use metaphors, similes, anaphora, parallelism, alliteration, and hyperbole to convey meaning, create structure, and add impact to their words.

By mastering the art of these devices, one can breathe life into their expressions, crafting narratives that are not only informative but also engaging, evocative, and persuasive. So, the next time you embark on a writing or speaking endeavor, remember to harness the potential of these language tools to leave a lasting impression on your audience.

The list of used literature

"The Elements of Style" by William Strunk Jr. and E.B. White

This classic work provides insights into the importance of stylistic devices and how they can be used effectively to enhance writing. It emphasizes clarity and conciseness in language, offering practical advice on how to improve writing style.

"Stylistics: A Resource Book for Students" by Paul Simpson

Simpson's book is a comprehensive introduction to the field of stylistics, exploring the various stylistic devices and techniques used in language and literature. It discusses the role of style in conveying meaning and the analysis of stylistic features in texts.

"Syntactic Structures" by Noam Chomsky

Chomsky's work in linguistics has been influential in our understanding of syntax. This book lays the foundation for modern syntactic theory, which is crucial for understanding how sentence structure influences communication.

"Lexical Semantics" by D.A. Cruse

"The Art of Rhetoric" by Aristotle

Aristotle's classic work on rhetoric has been a foundational text for the study of persuasive language and style. It explores the use of rhetorical devices in persuasive communication, making it a seminal work in the field.

"The Power of Words: Unveiling the Speaker and Writer's Hidden Craft" by R.L. Trask



1-TOM, 11-SON

This book discusses the power of words, delving into the intricacies of language and how speakers and writers employ lexical and syntactic devices to convey their messages effectively.

"Stylistics and the Teaching of Literature" by H.G. Widdowson

Widdowson's work explores the relationship between stylistics and the teaching of literature. It highlights the importance of understanding and teaching stylistic and syntactic features to enhance literary appreciation.

"Language and Style" by Susan C. Jannarone

Jannarone's book delves into the connection between language and style, examining how language choices and syntactic structures contribute to a writer's unique style.

"The Study of Language" by George Yule

Abduraxmanova, Z., & Mamurova, M. (2021). THEORETICAL APPROACH TO SPEECH DISFLUENCIES IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 43-45).

Абдурахманова, З. (2022). Analysis of pauses and interruptions as elements of linguistic production in simultaneous interpretation. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 533-535.



1-TOM, 11-SON
SIYOSIY KORRUPSIYA VA UNING IJTIMOIIY-FALSAFIY
JIHATLARI

Mirzaaxmedov Xayrullo Zoirovich, ilmiy izlanuvchi.

Annotatsiya: Siyosiy korrupsiya – bu siyosiy kuchlarga ega bo‘lgan shaxslarning (siyosat va davlat arboblari, eng yuqori darajadagi davlat xizmatchilari) siyosiy maqsadlarga erishish, hokimiyatni saqlash va mustahkamlash, hokimiyatni kengaytirish yoki boyitish maqsadida xizmat vazifasini suiiste‘mol qilishi hisoblanadi. Mazkur maqolada shu haqda to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Korrupsiya, siyosiy korrupsiya, jinoiy faoliyat, davlat hokimiyatini qo‘lga kiritish, hokimiyat yemirilishi.

Siyosiy korrupsiyaning asosiy va eng ko‘p qayd etiladigan, jinoiy jazoga tortiladigan shakllari pora berish (O‘zbekiston Respublikasining JK 210-m.) va uni olishdir (JK 212-m.). “Korrupsiya” tushunchasi etimologik mohiyatiga ko‘ra “buzish, pora evaziga og‘dirish” deb atalib, lotincha “corruptio” atamasidan olingan. Huquqshunoslikka doir manbada “korrupsiya – mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat”, deb ta’riflanadi.

Davlat hokimiyatini qo‘lga kiritish va amalga oshirish jarayonida hokimiyatni suiiste‘mol qilish bilan ifodalanadigan siyosiy korrupsiyaning mohiyatini, shuningdek subyektlari, maqsadlari va tarqalish sohasini tushuntirish asosida siyosiy korrupsiyaning umumiy ta’rifi berilishi mumkin.

Korrupsiyaning mohiyati shundaki, u jamoat munosabatlarini buzadi, jamiyatdagi narsalarning normal tartibini buzadi, buning natijasida sodir bo‘ladi. “Korrupsiya”, hokimiyatning “yemirilishi”dir. Aslida korrupsiya – muayyan davlat boshqaruvida turgan shaxslarning o‘z lavozimlaridan foydalangan holda, jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishi, o‘z manfaati yo‘lida boshqa shaxslarning ehtiyojlarini qondirishi, mavjud muhitdagi imkoniyatlardan boshqa maqsadlarda foydalanishi hisoblanadi. Davlat boshqaruvi tizimida bunday holatlar bevosita jamiyatdani parokandalik, davlat mulkinging boshqalar tomonidan o‘zlashtirilishi va ko‘plab obyektiv omillarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ushbu ta’rif, shuningdek, “bosqichma-bosqich korrupsiya” deb ataladigan holatlarga, xususan, dastlabki harakatlardan foydalanishga yoki kelajakda ishchilarga



1-TOM, 11-SON

nisbatan zo'rvonlik qilishda korrupsiya maqbul bo'ladigan muhitni yaratishga qaratilgan harakatlarni o'z ichiga oladi. Ammo korrupsiya har doim va hamma joyda huddi shu tarzda namoyon bo'lavermaydi, uning sabablari va oqibatlari bir xil, deb taxmin qilish noto'g'ri bo'ladi. Korrupsiyaning eng xavfli ko'rinishlari bu ma'lum bir davlat funksiyalarini bajaruvchi shaxs tomonidan o'zining rasmiy mavqeidan noqonuniy ustunliklarga (korrupsiya) ega bo'lish maqsadida foydalanishi, boshqa tomondan esa, manfaatdor shaxs tomonidan imtiyozlar berish (poraxo'rlik) bilan ifodalanadi. Korrupsiya tarqalishini cheklashning eng samarali modelini topish uchun bu tomonlarni ajratib bo'lmaydi. Shunga qaramay, an'anaviy ravishda, munozarali nizolarda tomonlarning hukmronligi (shu qatorda, katta ijtimoiy xavf nuqtai nazaridan) davlat funksiyalarini bajaruvchi shaxslarning o'ziga xosligi hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurash har qanday davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Siyosiy korrupsiyaning keng tarqalgan ikkinchi ko'rinishi siyosat subyektlarini ularning saylanish huquqini amalga oshirayotgan chog'ida sotib olishdir. Ushbu jinoyat uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilgan.

Mazkur hodisaning quyidagi turlarini ajratish mumkin: Siyosiy korrupsiyaning byurokratik va siyosiy, majburiy va kelishilgan, markazlashtirilgan va markazlashtirishdan chiqarilgan kabi turlari farqlanadi.

Bizning fikrimizcha, siyosiy korrupsiya - partiyalar, guruhlar va ayrim shaxslarning hokimiyatni egallab olish yoki ushlab turish maqsadida, shuningdek siyosiy raqiblarga birgalikda qarshi siyosiy kurashi va maqsadiga erishishini tushunish lozim¹. U guruhbozlikning shakllanishida, fuqaroning konstitusiyaviy huquqlari va erkinliklarining cheklanishida, davlat tuzumi va davlat hokimiyati asoslariga qarshi korrupsion qilmishlarda namoyon bo'ladi.

Har qanday davlat boshqaruvi boshqaruv vositalarini o'z strategik va taktik maqsadlariga mos ravishda tanlashi lozim. G'oyaviy korrupsiyada boshqaruv maqsadlarining o'zi buzib ko'rsatiladi. Ma'lumki, davlat o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun turli vositalardan foydalanishi mumkin (asosiy davlat va insoniy qadriyatlarga mutlaqo zid bo'lgan vositalar bundan mustasno). Ammo, davlat

¹ Шермухамедова Н.А. (2018). "Коррупциянинг турлари ва шакллари". Формирование антикоррупционной культуры в республике Казахстан и в странах центральной Азии: состояние, тенденции и перспективы развития посвящается 20 летию факультета Юриспруденции МО ЮГУ. Казахстана, Шимкент. – С. 72



1-TOM, 11-SON

boshqaruvi maqsadlari yaxlit va yagona bo'lishi lozim. Davlat hokimiyati boshqaruv maqsadlarini buzib ko'rsatgan, shaxsiy maqsadni qadriyat darajasiga ko'targan va unga erishish uchun harakat qila boshlaganda g'oyaviy korrupsiya paydo bo'ladi. Natijada islohotlar muayyan umumdavlat maqsadlariga erishish uchun emas, balki "xo'jako'rsinga" amalga oshirila boshlaydi. (Masalan, 2012-yilda Jahon moliya banki raisi Dominik Stros Kan 2017-yilda Fransiyada o'tkaziladigan Prezident saylovida ishtirok etishi mumkin bo'lgan munosib nomzod bo'lgan. Uning Prezident saylovida ishtirok etishi va ko'p ovoz olishi prognozlashtirilgach, faoliyati atrofida turli mish-mishlar tarqatildi va 2017-yildagi Prezident saylovida umuman ishtirok etmasligiga erishildi. 2016-yilda Fransiyaning Prezidenti lavozimiga saylovlar kompaniyasida ishtirok etgan 12 ta nomzodlardan biri Fransua Fiyon munosib nomzod bo'lganligi uchun uning turmush o'rtog'ining noqonuniy maosh olayotganligi va boshqa shunga o'xshash sabablar bilan oila faoliyati atrofida siyosiy o'yinlar tashkil etildi va oqibatda Fransua Fiyon Fransiya Prezidenti lavozimiga saylovining birinchi bosqichidayoq mag'lubiyatga uchradi).

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, har qanday siyosiy korrupsiya g'oyaviy korrupsiyaning mahsuli sifatida amal qiladi. G'oyaviy korrupsiya muayyan maqsadlarda davlatlararo va shaxslararo nizolarni, davlat boshqaruvi darajasida hokimiyat qarorlarini qabul qilishni monopoliyalashtirishni ko'zda tutadi.



1-ТОМ, 11-СОН
ГИПОНИМЛАР ҚЎЛЛАНИШИДА КОГЕЗИЯНИНГ НАМОЁН
БЎЛИШИ

PhD Шодикулова Азиза Зиқиряевна

Самарқанд давлат тиббиёт университети

Тиллар кафедраси ассистенти

Аннотация. Мақола гипонимлардан фойдаланишда намоён бўладиган уйғунлик жараёнини ўрганишга бағишланган. Гипонимия семантик мўъжиза бўлиши мумкин ва умумий сўз билан бирлик ассоциациясида намоён бўлади. Гипонимнинг референти номинатив бирликнинг экспрессив майдонига киради, у ўзига хос чегара шкаласи тоифаларини қамраб олади.

Калит сўзлар: когезия, гипоним, метонимия, Лексик когезия, нутқий мулоқот, тушунча, матн.

Abstract. The article is devoted to the study of the process of harmony manifested in the use of hyponyms. Hyponymy can be a semantic miracle and is manifested in the association of a unit with a common word. The referent of the hyponym enters the expressive field of the nominative unit, which covers the categories of the specific threshold scale.

Key words: cohesion, hyponym, metonymy, Lexical cohesion, speech communication, concept, text.

Когезиянинг яна бир кенг тарқалган усули гипонимлар қўлланишида намоён бўлади. Гипонимия семантик ҳодисалар қаторига кириб, бирон бир бирликнинг умумий сўз билан боғлиқлигида намоён бўлади. Гипонимнинг референти турли топ микёсдаги категорияларни қамраб олувчи номинатив бирликнинг ифода майдонидан ўрин олади. Масалан, cat “мушук”: animal, flute of instrument, chair of furniture (Chrystal 2008: 233).

Гипонимия жуфтликлари нутқий мулоқот шароитида лексик когезиянинг муҳим манбаси ҳисобланади. Ҳатто, уларнинг матн тузилишида бажарадиган вазифаси антоним ва синонимларникидан ҳеч ҳам кам эмаслиги яққол кўзга ташланади. Шунингдек, сўзларнинг ўзаро бирикуви ҳолатларини тушунишда ҳам гипонимлар ўзига хос ролни бажаради. Чунки гипонимлар муносабати асосида шаклландиган метонимия категориялар воситасида алоҳида турларни идрок этиш имконини беради. Матнда категориал бирлик ва унинг тобе бўлаги муносабати когезия боғлами шаклланишига хизмат қилади. Қиёсланг:



1-TOM, 11-SON

1. The hooded pitta is a new species for the trip, and one that we would find only on the mainland. It is a ground bird that rummages through leaf litter on the forest floor looking for food. (NYT, October 4, 2017);
2. The simple muscular exertions involved in producing the familiar ha, ha, ha, he said, trigger an increase in endorphins, the brain chemicals known for their feelgood effect (NYT, September 13, 2018).

Келтирилган парчалардан биринчисининг мавзуси маълум “жониворлар тури”га (species) ва “қушлар” (ground birds) турига кировчи қуш (the hooded pitta) ҳақида. Матнни ўқиётганлар the hooded pitta қандай нарса ёки жонивор эканлигини олдиндан билмасалар-да, лекин матндаги муносабатлар орқали ушбу иборанинг маъноси ҳақида фараз қилишлари мумкин.

Худди шунингдек, кейинги мисолда endorphins бирлиги brain chemicals тушунчасига нисбатан гипонимдир. Фақат шу боғлиқлик таянган ҳолда edorphain бирлигининг маъноси нима эканлиги ҳақида эҳтимол қилиш мумкин.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir.

O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirishlarining asosiy omili bo'lib, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi. Ayni shunday sa'y-harakatlar amalga oshirilishi ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbqiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilarni ilg'or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta'lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.



1-TOM, 11-SON

Multimedia – gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi: axborotning xilma-xil turlari: an’anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animasiya va boshqalar), turlarini bir dasturiy maxsulotda integrasiyalaydi. Bunday integrasiya axborotni ro’yxatdan o’tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari, muayyan vaqtdagi ish, o’z tabiatiga ko’ra statik bo’lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma’lum oralig’ida ko’rib chiqiladi.

Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy prosessor tez xarakatchanligi, ma’lumotlarni uzatish shinasining o’tkazish qobiliyati operativ va video-xotira, katta sigimli tashqi xotira, xajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo’yicha almashuvi tezligini taxminan ikki barovar oshirilishi talab etiladi, “inson-kompyuter” interaktiv muloqotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va xar tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur xolat ta’lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

Multimedia vositalari asosida o’quvchilarga ta’lim berish va kadrlarni qayta tayorlashni yo’lga qo’yish xozirgi kunning dolzarb masalasidir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o’zi nima degan savol tug’ladi? Ko’pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, mul’timedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video matn, grafika va animasiya effektlari asosida o’quv materiallarini o’quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko’rinishidir. Rivojlangan mamlakatlarda o’qitishning usuli hozirgi kunda ta’lim sohasi yo’nalishlari bo’yicha tadbiq qilinmoqda. Hatto har bir oila multimedia vositalarisiz xordiq chiqarmaydigan bo’lib qoldi.

Multimediya vositari asosida o’quvchilarni o’qitish quyidagi afzalliklarga ega

- 1) Berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o’zlashtirish imkoniyati bor;
- 2) Ta’lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- 3) Ta’lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
- 4) Olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bulganda amaliyotda qo’llash imkoniyatiga erishiladi.



1-TOM, 11-SON

Informatika va axborot texnologiyalari fundamental fan sifatida kompyuter axborot tizimlari negizida istalgan ob'ektlar bilan boshqaruv jarayonlarini axborot jihatidan ta'minlashni barpo etish metodologiyasini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Shunday fikr ham mavjudki, fanning asosiy vazifalaridan biri — axborot tizimlari nima, ular qanday o'rinni egallaydi, qanday tuzilmaga ega bo'lishi lozim, qanday ishlaydi, uning uchun qanday qonuniyatlar xos ekanligini aniqlashdir. Yevropada informatika sohasida quyidagi asosiy ilmiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin: tarmoq tuzilmasini ishlab chiqish, kompyuterli integratsiyalashgan jarayonni ishlab chiqarish, iqtisodiy va tibbiy informatika, ijtimoiy sug'urta va atrof-muhit informatikasi, professional axborot tizimlari. Multimedia tizimining paydo bo'lishi ta'lim, fan, san'at, kompyuter treninglari, reklama, texnika, tibbiyot, matematika, biznes, ilmiy tadqiqot kabi bir qancha kasbiy sohalarda revolyutsion o'zgarishlar yuzaga kelishiga olib keldi.

Kompyuterlarni ta'lim tizimida qo'llash g'oyasi ancha ilgari paydo bo'lgan bo'lgan bo'lsada, ta'lim tizimining barcha sohalarida axborot texnologiyalarini qo'llash multimedia qurilmalari bilan jihozlangan kompyuterlar paydo bo'lgach to'liq ma'noda amaliyotga joriy etilib boshlandi. Multimedia vositalarini ta'limda qo'llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta'limning gumanizatsiyalashuvini ta'minlash;
- o'quv jarayonining samaradorligini oshirish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o'zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta'lim olish, o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlik, ijodiy qobiliyatlari, olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi, o'rganishga bo'lgan qiziqishi, mehnatga bo'lgan munosabati);
- ta'lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- kompyuter vositalari va axborot elektron ta'lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta'lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta'limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;
- ta'lim oluvchiga faol bilim oluvchi subyekt sifatida qarash, uning qadrqimmatini tan olish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- mustaqil o'quv faoliyatini olib borish, bunda ta'lim oluvchi mustaqil o'qib va rivojlanib boradi;



1-TOM, 11-SON

- ta'lim oluvchilarda, o'zlarining kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun hozirgi tez o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuviga yordam beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.

Multimedia vositalari yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko'ptarmoqli, predmetga yo'naltirilgan multimediali o'quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi. Ular tarkibiga keng ma'lumotlar bazasi, ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilimlar bazasi, sun'iy intellekt tizimlari, ekspert-o'rgatuvchi tizimlar, o'rganilayotgan jarayon va hodisalarning matematik modelini yaratish imkoniyati bo'lgan laboratoriya amaliyotlari kiradi.

Ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivasiyasini) oshirishga ko'maklashish imkoniyatlariga ko'ra, shuningdek, har xil turdagi multimediali o'quv axborotlarining uyg'unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko'ra multimedia foydali va mahsuldor ta'lim texnologiyasi hisoblanadi. Interfaollikning ta'minlanishi axborotlarni taqdim etishning boshqa vositalari bilan taqqoslaganda raqamli multimedaning muhim yutuqlaridan hisoblanadi.

Interfaollik ta'lim oluvchining ehtiyojlariga mos ravishda tegishli axborotlarni taqdim etishni nazarda tutadi. Interfaollik ma'lum bir darajada axborotlarni taqdim etishni boshqarish imkonini beradi: ta'lim oluvchilar dasturda belgilangan sozlovlarni individual tarzda o'zgartirishi, natijalarini o'rganishi, foydalanuvchining muayyan xohishi haqidagi dastur so'roviga javob berishi, materiallarni taqdim etish tezligini hamda takrorlashlar sonini belgilashi mumkin. Lekin multimediyadan foydalanishda bir qator jihatlarni e'tiborga olish muhim. Multimediyada taqdim etilayotgan o'quv materiallari tushunish uchun qulay bo'lishi, zamonaviy axborotlar va qulay vositalar orqali taqdim etilishi talab qilinadi.

Multimedia texnologiyalarining barcha imkoniyatlarini to'liq ochib berish va ulardan samarali foydalanish uchun ta'lim oluvchilarga salohiyatli (kompetentli) o'qituvchining ko'magi zarur bo'ladi. Darsliklardan foydalanilgandagi singari, multimedia vositalarini qo'llashda ham ta'lim strategiyasi ta'lim jarayonida o'qituvchi nafaqat axborotlarni taqdim etish, balki ta'lim oluvchilarga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash va jarayonni boshqarib borish bilan shug'ullangandagina mazmunan boyitilishi mumkin. Odatda, chiroyli tasvirlar yoki animasiyalar bilan boyitilgan taqdimotlar oddiy ko'rinishdagi matnlarga qaraganda ancha jozibali chiqadi va ular taqdim etilayotgan materiallarni to'ldirgan holda zaruriy emosional darajani ta'minlab turishi mumkin.



1-TOM, 11-SON
Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik Ozbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T., Ozbekiston: NMIU, 2016.
2. B.Xodjayev, M.Maxmudova. Oquvchi – yoshlarda axborot istemoli madaniyatini rivojlanish texnologiyasi. – T., “TAFAKKUR QANOTI”, 2016.
3. TALIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA METODLAR VA ULARNING IMKONIYATLARI I Aldashev, S Aldasheva – Journal of technical research and development, 2023
4. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI ORNI M To'rayev, ST Aldasheva, IT Aldashev – Results of National Scientific Research International , 2023
5. O QUV JARAYONIGA MEDIA TALIMNING INTEGRATSIYASI I Aldashev – Scientific journal of the Fergana State University, 2023
6. Yuldasheva, G., & Yoldosheva, M.(2023). Yangi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. Talqin va tadqiqotlar, 1(6).
7. Алдашев, И. (2020). Современные информационные технологии в образовании-это новые возможности. Экономика и социум, (6 (73)), 341-344.
8. Shermatova, H. M. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida qo 'llanilishi. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE” THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS” (Vol. 2, No. 1, pp. 107-113).
9. Talim jarayonida kompyuter oyin texnologiyalarining orni*ITX Aldashev - : Innovative, educational, natural and social sciences, 2022
10. The importance of primary school teachers to use act in their activities T Tojiyev, I Aldashev – 2022



1-TOM, 11-SON
SUD TIBBIYOTIDA YONG'IN NATIJASIDA VAFOT ETGAN
INSONLARNI TISHIGA QARAB YOSHINI ANIQLASH

Sag'dullayev Narzulla Norkeldi o'g'li

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali

Qayumov Baxtiyor Allamuratovich

Respublika sud tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Surxondaryo filiali

Muammoning dolzarbligi: Zamonaviy sud ekspertizasi jinoiy va fuqarolik ishlarini hal qilish uchun yangi vositalar va ilg'or texnologiyalardan foydalanadi. Sud-tibbiyot ekspertizasi ushbu yangi davrda kuchli vosita ekanligi aniq. Rentgen, kompyuter tomografiyasi, magnit-rezonans tomografiya va boshqa tibbiy tasvirlash texnologiyalari tufayli sud-tibbiyot ekspertizasi rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratildi. Sud-tibbiy tasvirlash - bu sud-tibbiyot va tibbiy-huquqiy maqsadlarda topilmalarni tushuntirish va hujjatlashtirish uchun tasvirlardan foydalanishdir. Radiologik vositalar yordamida olingan ma'lumotlar sud-tibbiyot ekspertlariga o'lim sababini aniqlashda yordam berish uchun ishlatilishi mumkin va o'lim bilan bog'liq boshqa tibbiy-huquqiy savollarga javob berishga yordam beradigan qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi: Tish radiologiyasi sud odontologiyasida hal qiluvchi rol hisoblanadi. Biz bu ishimiz orqali tish

Tekshiruv materiallari va usullari: Jismoniy jihatdan muhim kapital ega va tibbiy yuridik sohada amalga oshirish. Fuqarolik va jinoiy ishda ishtirok etayotgan shaxsga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishda ko'pincha yoshni talab qiladi. Tishlar shaxsiy mahsulot va yoshni yordam berishi ma'lum, chunki ular juda ko'p harakatlantiruvchi vositalarni tozalashga, yong'inga, yong'inga qarshi kurashishga. Tirik odamlarda tish yoshlarini rivojlanayotgan o'zgarishlar rivojlanayotgan tish aniqlash bosqichlari vaqti va ketma-ketligini tekshirishning ketma-ketligi yoki modifikatsiyasini baholaydi noinvaziv usullarga asoslanadi. Tishlarning paydo bo'lishi bo'lishi - tishlarning paydo bo'lishidan tishlarning oxirgi to'kilishiga qadar sodir bo'ladigan turli dinamik o'zgarishlar orasida osonlik bilan paydo bo'lgan o'zgarishlardan biridir. Tishlarning chiqish vaqtlari juda doimiy va tishlarni ishlatish



1-TOM, 11-SON

orqali odamning yoshini ishlab chiqarish yoshni nazorat qilish qabul qilingan usullardan biridir.

Xulosa: Yoshni baholash usuli yosh toifalariga asoslanadi, bu erda Demirjian baholash usuli bolalar va o'smirlarning yoshiga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Bu Sasmita va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda isbotlangan. 2020 yilda ushbu Demirjian usuli yordamida 3 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan yoshni o'rgangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bu usul yuqori aniqlikka ega va xronologik yoshga juda bog'liq. Shunga qaramay, bu usul hali ham kamchilikka ega; ya'ni har bir shaxsdagi o'zgarishlar tufayli aniq yoshni aniqlay olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Grabherr S, Egger C, Vilarino R va boshqalar. Zamonaviy o'limdan keyingi ko'rish: so'nggi o'zgarishlar bo'yicha yangilanish . *Sud-tibbiyot ekspertizasi* . 2017; 2 :52–64. [[PMC bepul maqola](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]

2. Dirnhofer R, Jackowski C, Vock P, va boshqalar. VIRTOPSY: minimal invaziv, tasvirga asoslangan virtual otopsiya . *Radiografiya* . 2006; 26 :1305–1333. [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]

3. Sonnemans LJP, Kubat B, Prokop M va boshqalar. Postmortem KT bilan virtual otopsiya o'lim sababining klinik tashxisini yaxshilashi mumkinmi? Gollandiyaning uchinchi darajali tavsiya markazida retrospektiv kuzatuv kohort tadqiqoti . *BMJ ochiq* . 2018; 8 : e018834 [[PMC bepul maqola](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]

4. Shiotani S, Shiigai M, Ueno Y va boshqalar. O'limdan keyingi kompyuter tomografiyasi natijalari yo'l-transport hodisasi bilan bog'liq o'limga olib keladigan jarohatlarning dalili sifatida . *Radiat Med* . 2008; 26 :253–260. [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]



1-TOM, 11-SON

Neftning paydo bo'lish nazariyalari.

Sanjar Normo'minov Safar o'g'li

TerDu Kimyo fakulteti talabasi

Ibragimov Durbek Otabek o'g'li

TerDu Kimyo fakulteti talabasi

Mamatqulov Diyorjon Egamberdi o'g'li

TerDu Kimyo fakulteti talabasi

Xolliev Aziz Navro'z o'g'li

TerDu Kimyo fakulteti talabasi

Annotatsiya. Neft iqtisodiyotning asosiy manbai hisoblanadi. Mubolag'asiz, insoniyat farovonligi bu manbaga bog'liq. Biroq ko'p yillar davomida yonuvchan suyuqlik o'rganilishiga qaramay, uning kelib chiqishi hali ham sir bo'lib qolmoqda. Neftning kelib chiqishi haqida olimlar nima deydi? U qayerdan paydo bo'lgan?

Kalit so'zlar. Organik, noorganik, radikal, faza, sintez.

1950-yilda professor N.A.Kudryavsev neft hosil bo'lishining magmatik farazini zAilgari surdi. Uning fikricha, katta chuqurliklarda - Yer mantiyasida juda yuqori haroratli sharoitlarda uglerod va vodorod, uglevodorod radikallari – CH_3 , C_2H_5 va C_3H_8 ni hosil qiladi. Bosimning farqi natijasida ular mantiya moddalari bo'ylab chuqurlikdagi yoriqliklar zonasiga o'tadi va shu yoriqliklar bo'ylab yuqoriga, yer sirtiga yaqin ko'tariladi. Yuqori qatlamlarda harorat pasayib borgan sari bu radikattar o'zaro va vodorod bilan birlashadi. Natijada turli murakkabroq neftli uglevodorodlar hosil bo'ladi. Ularga uglerod oksidi va vodorodning reaksiyasidan hosil bo'lgan uglevodorodlar (bu reaksiyalar sanoatda sun'iy benzin olishda qo'llaniladi), shuningdek, M.Bertlo, D.I.Mendeleyev va boshqalar ko'rsatgan, turli metal karbidlari va suv reaksiyasidan hosil bo'lgan uglevodorodlar qo'shiladi. N.A.Kudryavsev fikricha, turli reaksiyalarning bo'lishi hosil boladigan uglevodorodlarning o'ta xilma-xilbo'lishini ta'minlaydi, bularning aralashmasi asosan esa tabiiy neftni tashkil etadi. Uglevodorodli gazlarni va neftlarni keyingi harakatlari ular Yer sirtiga yoki cho'kindi qoplamaning o'tkazuvchi jinslariga, ba'zan ular bilan chegaradosh bo'lgan kristall jinslardagi tutqichlarga olib keladi. Uglevodorodlarning harakati (migratsiyasi) suv bilan to'la yoriqlar bo'ylab yuz beradi, paydo bo'ladi, bu harakatning sababi neft hosil bo'lgan joylardagi va cho'kindi qatlamlardagi bosimlarning katta farq qilishi, shuningdek, suv va neft zichliklarining farqidir.



1-TOM, 11-SON

Yagona nazariya mavjud emas

Turli tadqiqotchilar “qora oltin” sayyorada qanday paydo bo‘lganligi to‘g‘risida o‘zlarining farazlarini ilgari surishadi. Nega ular neft kelib chiqishining yagona nazariyasiga ega emas?

Neft va gaz doimiy ravishda yer qa‘ridagi tabiiy bo‘shliqlar (teshiklar, yoriqlar) bo‘ylab harakatlanadi. Biroq, mineralning aynan qayerda va qanday hosil bo‘lishi bugun ham aniqlanmagan. Topilgan konlar esa shunchaki qusursiz to‘planish joylar: u yerdan neft qochib qutula olmaydi.

Shunga qaramay, olimlar neft hosil bo‘lishining ikkita - organik va noorganik ehtimoliy taxminini aniqlashdi.

Organik nazariya. Neft birikmalarini aniqlay oladigan ko‘rsatkichlar mavjud. Ulardan biri gil jinslardir. Bu bir vaqtlar dengiz tubida yotib qolgan loy. Vaqt o‘tishi bilan u dengiz hayvonlari qoldiqlari, qum va loy bilan aralashib, to‘planib, yanada chuqurroq joylashadi.

Million yillar o‘tgach, zichlanish, yuqori harorat va yer bosimi ta’siri ostida bunday loy tog‘ jinsiga aylanadi.

Yer ostida chuqur joylashgan organik moddalar yuqori harorat va bosim ta’sirida parchalanib, kimyoviy reaksiyalar jarayonida neftga aylanadi. Bu o‘zgarish uchun 50-350 million yil kerak bo‘ladi, bu esa geologlarning sayyora rivojlanishi bo‘yicha bergan ma’lumotlariga to‘liq mos keladi

Yer yuzidagi barcha neft va gaz kompaniyalari aynan shu nazariyaga amal qilib kelmoqda, shu sababli neft loyli slanets bor joyda izlashdan boshlanadi.

Noorganik nazariya

Kimyo sanoatining rivojlanishi neft va gaz noorganik birikmalardan laboratoriya sharoitida olish mumkinligini ko‘rsatdi. Masalan, uglerod oksidi va vodorod aralashmasi (sintez gazi) uglevodorodlarga aylanishi mumkin. Aynan shular neft va tabiiy gazdan iborat.

Bundan tashqari, uglevodorodlar ko‘pincha kutilmagan joylarda, masalan, Rossiyaning Kolsk shahridagi o‘ta chuqur qudug‘ida yoriqlar natijasida hosil bo‘lgan ko‘llar tubida va yer ostidagi vulqon otadigan moddalar tarkibida paydo bo‘ladi.

Shuning uchun ba’zi geologlar neft yer tubining 50 dan 240 kilometrda chuqurligida hosil bo‘lgan deb hisoblashadi. Ular yonuvchan suyuqlik metan zaxiralaridan kelib chiqadi, so‘ngra yangi zarb qilingan neft bo‘shliqlar va yoriqlar orqali sayyoramizning yuqori qatlamlariga yetib boradi, deb aytishadi.





1-TOM, 11-SON

Ushbu nazariyadagi nuqson shundaki, bu tarzda shakllangan manba klasterlari har qanday joyda to'planishi mumkin. Undan ko'ra loyli slanetsni izlab topish ancha osonroq. Biroq, mabodo neft va gazning kelib chiqishi noorganik bo'ladigan bo'lsa, unda ularning zaxiralari bitmasdir. Gap ularni qanday izlab topishda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi. 3-qism. Chernozhukov N. I. Neft xomashyosini tozalash va ajratish, tijorat neft mahsulotlarini ishlab chiqarish. M.: Kimyo. 1978. 424 b.
2. Manovyan A.K. Neft va tabiiy gazni birlamchi qayta ishlash texnologiyasi. M.: Kimyo. 2001. 568 b.
3. Sochevko T. I., Fedorova T. V., Xolodov V. P., Makarov A. D. Yoqilg'i-moylash materiallarini ishlab chiqarish texnologiyasi. 2-qism. M., 1989 yil.
4. Pavlov KF, Romankov PG, Noskov AA Kimyoviy texnologiya jarayonlari va apparatlari kursidagi misollar va vazifalar. L.: Kimyo. 1987. 576 b.
5. Manovyan AK, Tarakanov GV. Neft va uning fraksiyalarini distillash uskunasi texnologik hisobi. Astraxan. ASTU. 1998 yil.



1-ТОМ, 11-СОН

БОЛЕЗНЬ ПНЕВМОНИЯ У ДЕТЕЙ И МЕТОДЫ ЕГО ЛЕЧЕНИЯ

Исмаилова Шамсия Сохибмазаровна

Усмонова Нафиса Нарзуллаевна

Ассистенты Термезского филиала Ташкентской медицинской
академии

Уролова Мафтуна Фахриддин кизи

Студентка Термезского филиала Ташкентской медицинской
академии.

Абстрактный: Пневмония — острое инфекционно-воспалительное заболевание легких, вызванное бактериями, вирусами, простейшими или спорами грибов. Может возникать как самостоятельная патология или осложнять течение иных проблем со здоровьем (гриппа, иммунодефицитов, острых воспалительных процессов любой локализации, новообразований и прочих). Значительно снижает качество жизни человека и при отсутствии своевременной начатой терапии может приводить к ряду серьезных осложнений.

Ключевые слова: пневмония, атипичная пневмония, дети, диагностика, антибиотики.

Симптоматика пневмонии варьируется от типа заболевания, степени его тяжести и ряда иных факторов. При первичной бактериальной инфекции заболевание развивается стремительно. У, на первый взгляд, здорового человека резко повышается температура тела, появляются влажный кашель и одышка, как результат прямого повреждения легочной ткани бактериями. Вирусная, в том числе коронавирусная, пневмония у взрослых развивается постепенно, в несколько этапов, каждый из которых сопровождается соответствующими симптомами. Патоген постепенно спускается из верхних дыхательных путей к альвеолоцитам, повреждая их. Иммунная система человека в это время активно борется с вирусом. Если организм побеждает, патология не развивается, но, если инфекционный фактор оказался сильнее, у больного возникает пневмония. При пневмонии изменения, наблюдаемые со стороны сердца и сосудов у больного, связаны с поражением центральной нервной системы, а также одышкой, застойными явлениями в легких, токсикозом. Пневмония у детей вызывает функциональные изменения и в других системах: в пищеварительной (снижение активности ферментов, нарушения моторики желудочно-кишечного тракта и метеоризм у детей раннего возраста, дисбактериоз, парентеральная диспепсия); в эндокринной системе (снижение секреции катехоламинов,



1-TOM, 11-SON

глюкокортикоидов); в мочевыделительной системе (нарушение фильтрационной, реабсорбционной и секреторной функции почек, снижение мочевинообразующей и дезаминирующей функции печени); наблюдается нарушение иммунологической реактивности. Пневмония – наиболее распространенный вид воспаления легких, встречающийся у детей раннего, дошкольного и школьного возраста. Клиника: Клиника острой пневмонии у детей дошкольного и школьного возраста складывается из «легочных» (респираторных) жалоб, признаков интоксикации, признаков местных физикальных изменений. Заболевание может иметь постепенное начало с постепенным развитием характерных симптомов в конце 1-й и 2-й недели или внезапное начало с выраженностью первых трех дней клиники.

При первом появлении у ребенка с ОРВИ может отмечаться кратковременное улучшение или ухудшение симптомов интоксикации: повышение температуры тела, головная боль, недомогание и снижение аппетита, вялость и чувствительность к окружающей среде. Снижение интереса, беспокойство, нарушения сна, обложенный язык. при невнятной речи наблюдаются тахикардия, неадекватный уровень малярии. «Легочные» жалобы усиливаются на фоне уменьшения катара верхних дыхательных путей, влажного кашля, одышки, иногда появляются боли сбоку от грудной клетки. Шумные хрипы на выдохе не характерны для пневмонии. Цвет слизистых оболочек не изменяется, кожные слои становятся жидкими, иногда наблюдается периоральный цианоз, в дыхании участвуют вспомогательные мышцы груди: крылья носа разорваны, характерно межреберье, надостная ямка. В легких выявляют локальные физические изменения: над местом поражения ощущается перкуторный звук, дыхание ослабленное или грубое, выявляются крепитирующие и звонкие постоянные мелкопузырчатые хрипы. Для пневмонии характерно сохранение местных симптомов. В клиническом анализе крови наблюдают лейкоцитоз, сдвиг лейкоформулы влево, повышение ЭХТ. Рентгенологическое исследование выявляет очаговые тени в одном легком. Течение очаговой пневмонии у детей раннего возраста несколько иное. В первую очередь появляется одышка, а позже выявляются местные, физические изменения, процесс иногда носит двусторонний характер. У детей раннего возраста в начале заболевания выявляют катаральные явления: грипп, кашель, сухой кашель, субфебрилитетный или лихорадочный состав тела, наблюдаются изменения общего состояния. При осмотре у ребенка выявляют вялость,



1-ТОМ, 11-СОН

а динамию, мышечную гипотонию, одышку, участие вспомогательных мышц в дыхании, бледность кожи, ротовой и диффузный цианоз. Помимо одышки может наблюдаться дыхательная аритмия, кратковременное апноэ. При осмотре хрусталика наблюдают признаки отека легких: коробчатый перкуторный звук, сужение относительной границы сердца. В начале пневмонии выслушивается замедленное дыхание. Локальные и крепитирующие хрипы мелкого калибра выслушиваются у половины детей в первые дни пневмонии, в дальнейшем выявляются у многих больных. Рассеянные хрипы в легких являются симптомом бронхита и бронхиолита. Бронхиолит осложняется пневмонией, если длится более недели. Очаговая пневмония у детей раннего возраста характеризуется отеком легких, расширением корня легкого и увеличением визуализации легких. Тени иногда смешиваются. На рентгенограмме смешанные тени с очагом вызывают склонность к развитию абсцесса. Последствие. Заканчивается хорошо, зависит от антибиотиков. Клиническое и рентгенологическое улучшение наступает через 3-4 недели.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Классификация клинических форм бронхолегочных заболеваний у детей // Вестн. перинатол. и педиатр. — 1996. — Т. 41, № 6. — С. 52–55.
2. Hendricson K.J. Viral pneumonia in children. Seminar in Pediatric Infectious Diseases. — 1998. — V. 9. — P. 217–233..
3. Black S.B., Shinefield H.R., Hansen J. et al. Postlicensure evaluation of the effectiveness of seven valent pneumococcal conjugate vaccine // Pediatr. Infect. Dis. J. — 2001. — V. 20, № 12. — P. 1105–1107.
4. Острые пневмонии у детей / Под ред. В.К. Таточенко. — Чебоксары, 1994. — 323 с.
5. Pechere J.-C. (ed.). Community-acquired pneumonia in children. International Forum Series. — Cambridge Medical Publication, 1995. — 154 p.



1-TOM, 11-SON
BOLALAR YOSHIDA NERV SISTEMASI VA OLIY NERV
FAOLIYATINING UMUMIY XUSUSIYATLAR.

Boboyorova Hayitoy Uchqun qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

Annotatsiya: Nerv sistemasi, bir tomondan har xil to'qimalar, organlar va sistemalarga o'tadigan metabolik, fiziologik jarayonlarni moslash, boshqa tomondan, uning yordamida butun organizm bilan tashqi muhit orasidagi aloqalarni o'rnatish vazifasini bajaradi. Ontogenez vaqtida nerv sistemasining har xil qismlari funktsionai sistemaga birlashib, yoshiga qarab kamolotga yetadi va uyg'unlashadi. Ushbu maqolada bolalar yoshida nerv sistemasi va oliy nerv faoliyatining umumiy xususiyatlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlari: Oliy nerv faoliyati, markaziy nerv sistemasi, pallidium funksiyasi, lipofutsin pigmenti.

Ilk bolalik davrida markaziy nerv sistemasi juda tezlik bilan rivojlanadi. I. P. Pavlovning fikri bo'yicha, oliy nerv faoliyatining xususiyati irsiyat, omil va tarbiya sharoitlari sintezidir. Odamning umumiy aql rivojlanishining 50% to'rt yoshidan shakllana boshlaydi. 1/3-4-8 yoshligida, qolgan 20% 8-17 yoshligida. Shuning uchun ilk bolalik davridagi noxush omillar ta'siri markaziy nerv sistemasining og'ir buzilishlariga sabab bo'ladi. Noxush omillarning ta'siri birinchi navbatda bosh miya po'stlog'ining o'ta kuchli qo'zg'alishigacha olib borishi mumkin. Qisqa muddatli qo'zg'alishdan keyin uning tarqoq tormozlanishi paydo bo'ladi. Markaziy nerv sistemasi oliy tavaqalarning vazifasi periferik o'ziga qabul qiluvchi mexanizmlar hisoblangan reseptorlarning faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Interoreseptorlar qitqilashishni ichki organlardan bosh miya po'stlog'iga yetkazadi; eksteroreseptorlar esa qitqilashishni tashqi muhit orqali ta'min etadi. Bosh miya po'stlog'iga kelgan sezgi qo'zg'alish qabul qilib, tahlil va sintez qiladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, katta yarimsharning bosh miya po'stlog'i hujayralarining mukammal ravishda yetilishi shartdir. Bola nerv sistemasining, bosh miya po'stlog'i hujayralarining yetarlicha rivojlanmaganligi sababli, qabul qiluvchi qo'zg'alish funksional yetarli emas. Bola muhit sharoiti bilan bog'liq bo'lganda, u muhit bilan yaqindan o'zaro munosabatda bo'lishi lozim. Bu muvozanatlashtirish bir qator mexanizmlar, chunonchi ekstero- va interoreseptorlar, gumoral tartibga solish sistemalari, keyin organlar vazifasining o'zgarishi va simptomatik simpatik sistemaning adaptatsion -trofik vazifasi orqali



1-TOM, 11-SON

amalga oshiriladi. Bu mexanizmlarning hammasi bevosita bosh miya po'stlogi tomonidan boshqariladi, Odamning murakkab xatti-harakati va oliy nerv faoliyatining rivojlanishi tamomila bosh miya va qisman uning katta yarimshari bilan bog'liq.

Yangi tug'ilgan va kichik yoshdagi bolalarning nerv sistemasi uning boshqa sistemalariga nisbatan o'zining yetarlicha rivojlanmaganligi va tabaqalarga ajralmaganligi bilan farq qiladi. Bosh miya. Ona qornidagi hayotning birinchi davrida (birinchi oylikkacha) miya po'stlog'i tabaqalarga bo'linmagan, miyelin pardali nerv tolalari yo'q, qorindagi davrning oxirida miya po'stlog'ida bir-birovining ustiga joylashgan yetti qavatli neyronlar vujudga keladi. Yangi tug'ilgan bola miyasining katta yarimsharida deyarli hamma miya pushtlari va egatlari bo'lsa ham, ammo ular juda kuchsiz rivojlangandir; miya po'stlog'i qavatlarining tuzilishi asosan ona qornidagi davrning oxiridagina tamom bo'ladi, lekin hamma nerv hujayralarining tabaqalarga bo'linishi asosan postembrion davrda vujudga keladi. Ayni zamonda orqa miya, ko'ruvdo'mbog'i (talamus opticus), aksincha, tuzilishlari birmuncha takomillashgan bo'ladi. Miyachaning shakli uzunchoq bo'lib, uning egatlari aniq ko'rinib turmaydi. Faqat yilning birinchi yarmida bolaning miyasi makroskopik jihatdan kattalar miyasiga yaqinlashib qoladi. Miyaning og'irligi tug'ilgandan keyin shiddatli ravishda o'sa boradi, yangi tug'ilgan bola miyasining og'irligi 360-370 gramm, 6 oylik bolaniki — 600 gramm, yilning oxirida esa — 900 grammga yaqindir. Yangi tug'ilgan bola miyasining og'irligi gavdasi og'irligining 1/8 qismiga, kattalarniki esa 100 qismiga tengdir. Bosh miya og'irligi 9 oylikda ikki marta, 1 va 3 yoshlar mobaynida uch marta oshadi, 20 yoshlarda 4-5 marta ko'payadi. Miya moddalarining tabaqalarga bo'linishi, ya'ni nerv to'qimalari, ganglioz hujayralar va nerv tolalarining rivojlanishi birmuncha sekinlik bilan boradi. Chunki yangi tug'ilgan bolada qatqaloq qavat kam tabaqalarga bo'lingan va po'stloqning markazi yetarlicha mukammalashgan emas. Bosh miya po'stlog'ining, ayniqsa, shiddatli ravishda rivojlanishi tug'ilgandan keyin birinchi uch oyda yuzaga keladi. Nerv hujayralarida dentritlarning (nerv hujayralarining) kalta shoxlari yo'qligi juda ham xarakterlidir. Nerv hujayralarining tabaqalarga bo'linishi asosan 3 yoshda tamom bo'ladi. 8 yoshlarda esa butunlay takomillashadi. Tug'ilgan paytidan boshlab o'tkazuvchi yo'l yetarli rivojlangandir. Piramida yo'llari esa 5-6 oylarda miyelin pardasi bilan o'raladi.

Orqa miya. Bola tug'ilgandan keyin orqa miya og'irligi 2- 6 g va kelgusida bosh miya og'irligiga qaraganda birmuncha sust o'sadi. Orqa miyaning o'sishi harakatga keltiruvchi funksiya rivojlanishi bilan yonma-yon boradi; u o'zining og'irligini 5 yoshlarda uch martaba orttiradi, ammo uning bosh miyadan farqi shundaki, ikkinchi



1-TOM, 11-SON

yildan boshlab uning tuzilishi kattalarning tuzilishiga yaqinlashadi. Yoshga qarab faqat oldingi shoxning harakatlantiruvchi hujayralari soni ko'payadi. Bolag'atga yetish davrida orqa miya 4-5 marta kattalashadi. Orqa miya punksiyasini amalga oshirishda, yangi tug'ilgan bolada orqa miyaning pastki qismi III bel umurtqasi baravarligida, 4 yoshda kattalarniki kabi I va II bel umurtqasi oralig'ida joylashganligini e'tiborga olish lozim. Bosh suyak ichidagi nervlar 3 oygacha, periferik nervlar esa 3 yilgacha miyelin pardasi bilan o'ralib boradi. Vegetativ nerv sistemasi tug'ilishdanoq faoliyat ko'rsatadi. Shunday qilib, ilk bolalik davrida nerv sistemasining morfologik xususiyati bosh miya po'stlog'ining yetarlicha rivojlanmaganligi, nerv hujayralarining yetarlicha tabaqalarga ajralmaganligi va nerv tolalarining miyelin pardasiga yetarlicha o'ralmaganligi bilan ifodalanadi. Shunga ko'ra bolalik davridagi nerv sistemasi funksiyasining bir qator xususiyatlari bor. Embrional davrda homiladorlikning birinchi yarmida xohlagan nuqtadan qitiqlanish nerv sistemasi tomonidan tarqalgan reaksiya beradi, bu tarqaladigan reaksiyaga moyillik yangi tug'ilgan bolalarda ham saqlanadi. Homiladorlikning ikkinchi yarmida ta'sirlanish birmuncha ma'lum joyda namoyon bo'lishi aniqlangan. Modomiki, miya po'stlog'i piramida yo'llari va striar jism bola tug'ilganda to'la rivojlanmagan, yangi tug'ilgan bolaning butun hayotiy funksiyasi oraliq miya asosan talamopallidar, ya'ni po'stloq osti sistema tomonidan tartibga solinadi. Chunonchi, pallidar motorli harakatni tartibga soladi; yangi tug'ilgan bola uchun xos bo'lgan ongsiz ravishda, oyoq va qo'l barmoqlarining o'zicha sekin, beixtiyor harakatlanishi ham shunga bog'liq.. Yangi tug'ilgan bolalarga xos bo'lgan harakatlar, masalan, quchoqlab olmoq, kelgusida emaklab yurmoq ham pallidium funksiyasiga bog'lanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Blinova S. A., Yuldasheva N. B., Khotamova G. B. Morfofunktsionalnye svoystva sousudov legkix pri bronkhoktaticeskoy bolezny u detey //Voprosy nauki i obrazovaniya. – 2021. – no. 10 (135). - S. 60-65.
2. Shamsiyev A. M., Ostrie destruktivnie pneumonii u detey, T., 1966;
3. Ubaidullayev A.M., Ginzburg V.S., Examination of lung function in the clinic, T., 1991
4. Aliyev, M. M. "II". Syndromes of acute surgical diseases of chest organs, 2018 (Uzbek), Tashkent: "New edition" - 80 pages.



1-TOM, 11-SON

The main stages of the formation of Chinese writing (from ancient world to the present)

O'ralov Orzubek

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining Tarix fakulteti tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) 1-kurs talabasi

E-mail: orzubekurolov06@gmail.com

Tel: +998 99 500-75-68

Abstract: Chinese script is the language with the largest number of speakers today, and the language is gaining popularity. The writing of this language is based on hieroglyphs, and its formation goes back to the distant past. Let's take a brief look at the development of this language

Keywords: hieroglyph, hanzi, ideographic script, Shan-Yin dynasty, Western Zhou, Guwen, xiaowen, datsuan, Northern Wei, legal script, crazed script, li shu, fangquazi, guoyu, pinyin.

Основные этапы становления китайской письменности (от древнего мира до современности)

Аннотация: Китайская письменность — это язык, на котором сегодня говорит наибольшее количество носителей, и этот язык набирает популярность. Письменность этого языка основана на иероглифах, а его формирование уходит в далекое прошлое. Давайте кратко рассмотрим развитие этого языка.

Ключевые слова: иероглиф, ханьцзы, идеографическое письмо, династия Шань-Инь, Западная Чжоу, Гувэнь, сяовэнь, дацуань, Северная Вэй, юридическое письмо, скоропись, ли шу, фанквazi, гоуй, пиньинь.

Xitoy yozuvi shakllanishining asosiy bosqichlari (qadimgi dunyodan to hozirgacha)

Annotatsiya: Xitoy yozuvi bugungi kunda eng ko'p gaplashuvchilar sonida ega til bo'lib ushbu til hozirgi kunda ommalashib bormoqda. Ushbu til yozuvlari iyerogliflarga asoslangan bo'lib, uning shakllanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bu tilning rivojlanishini qisqacha ko'rib chiqsak

Kalit so'zlar: ieroglif , hanzi , ideografik yozuv , Shan- In sulolasi , G'arbiy Chjou , Guven , syaoven , datsuan , Shimoliy Vey , qonuniy tez yozuv , quturgan yozuv ,



1-TOM, 11-SON

li shu , fanguazi , guo yu , pinyin.

Kirish

Jahon tillaridan sanalgan Xitoy tili bugungi kunda o'zining murakkab yozuv texnikasi va talaffuz ohanglari bilan o'rganilishi qiyin bo'lgan murakkab tillar qatorida yetakchi sanaladi. Ieroglifli tizimga ega bo'lgan ushbu tilni o'rganuvchilar soni ham ortib bormoqda. Uning buguni bilan bir qatorda o'tmishi bilan qiziquvchi tarixchilar va sinolog (xitoyshunoslar)larning soni ham ortib bormoqda. Ushbu tilning yozuvining shakllanishi ham ancha olis o'tmishga borib taqaladi. Buni taqdiq etish esa murakkab bo'lishiga qaramay anchayin qiziqdir.

Asosiy qism

Xitoy sivilizatsiyasi tarixi xuddi she'rga o'xshaydi . Xitoy sivilizatsiyasi ko'p qirrali va uzoq o'tmishga borib taqaladi. Yozuvning shakllanishi xitoy sivilizatsiyasining farovon va yuksak ekanligini ko'rsatadi. Bugungi Xitoy tili yozuvining shakllanishi bundan , qariyb 3,5 - 4 ming yil ilgari davrlarga taqaladi. Xitoylik yirik arxeolog olim Dong Szoubin(董作濱) (1895 - 1963) Shan sulolasi davriga oid suyak va toshbaqa kosasi ustiga yozilgan yozuvlarni kashf etadi[1]. Yanabir arxeolog olim Li Szi (李濟) (1896 - 1979) ning ilmiy izlanishi Shan sulolasi va sivilizatsiyasiga doir "Xitoy sivilizatsiyasining boshlanishi" asarida ham yozuvlar haqida ma'lumotlar mavjud[2]. Keyingi tadqiqotlar natijasida biz qadimgi Xitoy yozuvi va Shan sulolasiga doir ko'proq ma'lumotlarga ega bo'la boshlaymiz.

Xususan, Sharqiy Huayuanzhuang suyakdagi bitiklarining 1991 - yildan topilgan ilk namunalari va undan keyingi tadqiqotlar natijasida Xitoy arxeologlari tomonidan 2003 - yilda 6 jilddan iborat to'plamlarida Shan sulolasi (e.o 1250- 1045)ga doir ko'plab ma'lumotlar ochildi. Bu risolaning birida Shang sulolasining 27-vakili Vu Dingning "knyazlik aloqalari" bo'yicha ma'lumotlar aniqlangan[3]. Shan sulolasi davridagi yozuvlar piktografik xarakterga ega bo'lib , ko'rinishi rasmni eslatgan[4]. Shan sulolasi ning ikkinchi yarmidan In sulolasi bilan birgalikdaboshqarilgan. Bu davr tarixda Shan-In sulolasi deb ataladi.

Shan-In sulolasi davrida Xitoyda ilk yozma adabiyot namunasi- "Mumtoz qo'shiqlar" nomli asar yoziladi[5]. Yozuv uchun ishlatilgan ashyolar bundan 3,5 - 4 ming yil ilgari topilgan. Ushbu yozuv namunalari ,dastlab suyak, cho'p, teri va bambukka yozilgan[6]. Dastlabki topilgan namunalar tosh(asosan, toshbaqa kosasi) ustiga yozilgan bo'lib, bu yozuvlar jiaguven(xit. 甲骨文) ya'ni so'zma so'z tarjimasi toshbaqa kosasidagi yozuv ma'nosini anglatadi. Shan sulolasi avridan so'ng G'arbiy Chjou(西周 xi zhou)davrida bronzadan ko'p qo'llanilgan. Odamlar bronza ustiga



1-TOM, 11-SON

yo'zishni ham boshlaganlar. Arxeologlar bronza ashyolarni o'rganib u yerdan ham yozuvlarni ham o'rganoshgan. Va bu yozuvlarni bronza yoki temir asboblarga yozilgan ibodatxona qozonlaridagi bitiklar (xit.jingveng 金文 yokichongdingveng 钟鼎文) nomini oladi. O'rtada jiaguven yozuviga asoslangan kichik muxrli yozuv (xit.xiaozhuan 小篆) nomli yozuv paydo bo'ldi. G'arbiy Chjoudavrigacha bo'lgan shu 3 ta yozuv umumiy nom bilan qadimiy yozuv (xit.guven 古文) deb atalgan[7]. Guven yozuvida qadimgi xitoy tarixi va falsafasiga oid ko'plab asarlar yozgan. Yirik xitoy faylasuflari Lao Szi, Mao Szi va Kun Fu Szi (Konfutsiy yoki Sya Kun) ning asarlari ham aynan guven yozuvida yozilgan. Tadqiqotchilar Konfutsiy falsafasining asosi sanalgan olti qonunni o'rganish uchun ushbu yozuvlarga oid 340000 ieroglif mavjudligini hisoblab chiqishgan[8]. Mil.avv. VIII asrda Xitoyda Sharqiy Chjou (xit.dongzhou 东周) davri boshlangan (mil.avv 771-256). Bu davrga kelib yangi husnixat yozuvi shakllangan. Bu yozuv usuli katta belgili yozuv (xit.zhouven 皱纹 yoki dazhuan 大篆) nomini oladi[9]. Ushbu yozuv uslubi guven yozuv usulidan farq qilgan. Chunki guven yozuvi, asosan, chiziqli asosga ega bo'lsa, dazuan yozuvi unga parallel ravishda to'rtburchakli asosga ega bo'lgan. Vaqtlar o'tishi bilan ko'p podsholiklar davrida har bir qirollik o'z yozuvini ishlab chiqa boshladi. Natijada yozuvni o'qish juda murakkab bo'lib qoldi. Mil.avv III asrda Xitoyni mahalliy Sin (xit.qin 秦) (mil.avv 221-206) sulolasining vakili Sin Shixuandi umumiy yozuv islohotini o'tkazadi. Bu yozuvni yaratishni bosh vaziri Li Szi (xit. 李斯 LiSi) ga buyuradi. Li Szi yangi yozuv texnikasini ishlab chiqishga urinadi va buning uddasidan chiqadi. Bu yozuvga esa kichik belgili yozuv (xit. xiaozhuan 小篆) nomini beradi [10]. Bu yozuv birlashgan umumilliy xitoy madaniyatining shakllanishiga turtki beradi. Sin sulolasidan keyin hokimiyatga Xan (xit. han 汉) keladi va yangi yozuv paydo bo'ladi. Rivoyatlarga ko'ra yangi yozuvni Cheng Miao (xit. 程邈 Cheng Miao) degan shaxs yaratgan. Xan davriga oid yozuv rasmiy yozuv (xit. lishu 隶书) nomi bilan bizga ma'lum.

Milodiy davrlarga kelib bu yozuvda ham chalkashliklar yuzaga keldi. Natijada yangi yozuv, ya'ni qonuniy tez yozuv (xit. zhangchao 章草) yaratildi. Zhangchao yozilishi va chiziqlar texnikasi bilan lishudan farq qilmagan. Bu yozuv, ayniqsa, Jing (xit. jin 晋) sulolasi davrida keskin ommalashdi [11]. Ilk o'rta asrlarda, milodiy IV asrda Xitoy yozuvi bilan bir qatorda leksikasi va grammatik me'yorlari ham isloh bo'la boshladi.

Milodiy IV asrdan to XII asrgacha o'rta Xitoy tili shakllandi. Tadqiqotlar natijasida 601-yilda yozilgan lug'atsimon asar Suy va Tan sulolasi davri leksikasini



1-TOM, 11-SON

o'zida namoyon etadi. Shved tilshunosi Bernard Karlger lug'atda ushbu 2 sulolaning poytaxti sanalgan Changan shahri lahjasi nutq me'yorlariga asoslanganligini ko'rsatadi[12]. Bu jarayonlar husnixat me'yorlariga ham ta'siretmay qolmadi. Tan(xit.) sulolasigacha Suy sulolasi davriga kelib li shuning qoidalarini saqlab qolgan bugungi tez yozuv(xit.jingchaojingchao 今草)nomini oladi. Bu davrga kelib Shimoliy Vey(xit.beivei北魏)sulolasi davrida ham yangi husnixat me'yorlari paydo bo'lgan. Bu yozuv texnikasi yarim tez yozuv (xit.xingshu 行书) nomini oladi[13]. Tan sulolasi davriga oid husnixat 3 marta isloh bo'lgan: dasavval, katta belgili tez yozuv(xit.dachao 大草); kichik belgili tez yozuv (xit.xiaochao 小草); quturgan belgili yozuv (xit.kuangchao 狂草)nomlarini olgan. Ular umumiy qilib namunali yozuv (xit.kaishu 楷书)nomini oladi. Bu husnixat hozirgacha qo'llanadi. Ushbu yozuvlar to'rtburchakli yozuvlar(xit.fangkuaizi 方块字)asosida yoziladi[14]

XIX asr oxiriga qadar yozuv islohoti deyarli yuz bermadi. XX asrga kelib xitoy jamiyatida ajnabiy atamalar paydo bo'ldi. Xitoyning "ochilishi" natijasida chet eldan o'zlashma so'zlar paydo bo'lishi tovush tizimiga oid yangi alifboning shakllanishiga turtki berdi. 1894-1895-yilgi Xitoy inqilobidan keyin venyan(xit.文言)adabiy tili faqat badiiy adabiyotda saqlanib qoldi. Yozuvni esa alifbolashtirish boshlanib ketdi. Bu ishda yirik tilshunos olim Lyu Fu 6 ta turli alifbolarning ichidan 2 ta alifbolarni tanlab oldi: biri Van Chjaoning Pekin lahjasiga asoslangan Pekin alifbosi(xit.guanhuazimu 话字母); ikkinchisi esa Lya Nya-suanning Nankin yozuvi(xit.jianzi 间子) edi. Ushbu yozuv bilan parallel ravishda Shanxay, Fuszyan va Guandun provensiyalarining lahjalari alohida alifbo tizimini yaratadi. 1908-yilda Lao Nay-syuan imperator saroyida nutq so'zlaydi. Lekin ko'pchilik tomonidan bu alifbo ma'qullanmaydi. Ammo, bu alifbo tizimi ham Van Chjao alifbosidan qolishmaydigan tizimli edi. 1912-yilda davlat alifbosini yaratish Maorif vazirligining kun tartibiga kiritildi. Faqat 1918-yilga kelib Van Chjao alifbosi asosida yangi umummilliy xitoy alifbosi yaratildi. Bu alifboni davlat alifbosi (xit.guoyu 国语) nomini oladi. Alifbolashtirishdan so'ng xitoy talaffuzini ham yaratish muhim masalaga aylandi. Xitoy hukumati 1956 - 1964- yillar oralig'ida xitoycha harflar va belgilarni isloh qildi va 2235 ta soddalashtirilgan belgilarni nashr etdi. 1958-yilda esa XXR Maorif vazirligi lotin yozuviga asoslangan fonetiktizim, pinyin yaratildi. Endi xitoy tovushlar 4 ta ton(tovush)dan iborat tizimga solindi. Xitoy yozuvi hanzi (xit.汉字) yoki biaoyi(xit.表意)deb nomlashgan. Tilshunoslar tomonidan belgilarni ikki turga bo'lgan. Bular: oson belgili(xit.duitzi 独体字) va murakkab(xit.hetizi 合体字). 1971-yilgi "Xitoy tililug'ati"(xit.hinhuazidianhin 花字典) da kundalik hayotda iste'moldagi



1-TOM, 11-SON

7000 ga yaqin ieroglif kiritilgan[15].Bugungi kunda ierogliflardan nafaqat Xitoy, balki Yaponiya , qisman Janubiy Korea , Vietnam va Singapurda ham qo'llaniladi.

Xulosa

Xitoy ierogliflarining uzoq tarixiga nazar solar ekanmiz , yozuv xitoyliklar uchun shunchaki muloqot vositasi emas ,balki san'at va qudrat ramzi ham bo'lgan.

Har bir sulola o'z yozuv texnikasini yaratib , qolgan sulolalardan qudratli ekanligini ko'rsatishga harakat qilganligini ko'rishimiz mumkin.An'anaviy Xitoy yozuvini esa siyoh bilan yozish esa ular san'at darajasigacha olib chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Harvard.L. Biographical dictionary of the Republic of China. New York: Columbia University Press-1967. P.345-347.
2. Timothy Murray. Milestones in Archeology.Santa Barbara. California-2007.pp.388.
3. Adam Craig Schwartz.The oracle bone inscriptions from Huayuan-ZhuangEast. Berlin printing-2019
4. Hasanova.F.M. Xitoy tili(Ieroglifika).T.:Toshkent-2020.B 16The World Book Encyclopedia (Cc-Chch) Volu.3. The USA- 1994 P 488- 489
5. Kabirov.A.Qadimgi Sharq tarixi.T.: Tafakkur-2016. B320-321
6. Hasanova.F.M. Xitoy tili(Iyeroglifika).T:Toshkent-2020.B
7. Syu Fucheng. Konfutsiylik.T.: Akademnashr-2021. B 17-18
8. Hasanova.F.M.Xitoy tili (Iyeroglifika).T.:Toshkent-2021.B
9. Hasanova.F.M. Xitoy tili (Iyeroglifika).T.: Toshkent-2021.B 19
- 11.Hasanova F.M Xitoy tili (Iyeroglifika).T.:Toshkent-2021.B 19-20
10. Xi Xiang .A Brief of the Chiese Language II .Routledge -2022. 170pages
11. Maxmudxo'jayev M.X.,Bekmuratov I.N. Xitoy yozuvi (ierogliflari) haqida.T.:Toshkent-1990
12. Hasanova.F.M. Xitoy tili (Iyeroglifika).T.:Toshkent-2021.B 33
13. Hasanova.F.M. Xitoy tili (Iyeroglifika).T.:Toshkent-2021.B 4-5S



1-TOM, 11-SON
WORDMEANING. DIFFERENT APPROACHES TO MEANING.

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo
Ulug'bek The Faculty of Psychology, the department of Foreign languages

Philology and teaching languages

Scientific advisor: Teshaboyeva Nafisa Zubaydulla qizi

nafisateshaboyeva@jnbuu.uz

Student of group 401-22: Xolmo'minova Nesbali Odiljon qizi.

nasibaxolmominova86@gmail.com

Annotation:

